

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“IQTISODIYOT VA MENEJMENT” FAKULTETI
“IQTISODIYOT” kafedrası

“Himoyaga tavsiya etildi”

“Iqtisodiyot”
kafedrası mudiri, dotsent v.b.
_____ Sh.A.Sultonov

“Iqtisodiyot” kafedrası majlisi
bayonnomasi № ____
2014 yil “ ____ ” ____

“IQTISODIYOT” ta’lim yo‘nalishi

IK-110 guruh talabasi Maxmudov Ismoilning

Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish
yo‘llari (Payariq tumani misolida)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dotsent v.b. Sh.A.Sultonov

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-4
I – Bob Iqtisodiyotni moderinzatsiya qilish va diversifikatsiyalash sharoitida kichik beznis va xususiy tadbirkorlikning nazariy asoslari.....	5
1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmuni, mohiyati va ahamiyati.....	5-16
1.2. Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.....	16-20
1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy davlatlarning tajribalari.....	20-25
II-Bob Payarik tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini rivojlanish holati va ularning aholini ish bilan ta’minlashdagi o‘rni.....	26
2.1. Payarik tumanining ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi.....	26-31
2.2. Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining umumiy holati va tahlili.....	31-37
2.3. Payariq tumanida aholini bandligini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning holati va tahlili.....	37-42
III-Bob Payarik tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining rivojlanish istiqbollari va xavfsizligini ta’minlash masalalari.....	43
3.1. Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	43-53
3.2. Payariq sub’ektlarida mehnat va yong‘in xavfsizligini ta’minlash tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalari.....	53-60
Xulosa va takliflar.....	61-63
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	64-66

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish, oldimizda turgan murakkab va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish borasida qanday hal qiluvchi o'rin va ta'sirchan bo'lib borayotganiga bugun amaliy hayotimizda har qadamda guvoh bo'lmoqdamiz.

Har qanday mamlakatning salohiyati uning iqtisodiyoti bilan belgilanadi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin xususiy mulkchilikka yo'l ochilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllanib rivojlanishiga keng yo'l ochildi. Uning samaradorligini oshirish davr talabi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek «Mulkchilikning barcha shakllariga erk beriladi, shaxsiy tashabbus va ishbilarmonlikka keng yo'l ochiladi». Shunday qilib, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi mamlakatda ko'p ukladli iqtisodiyotni poydevorini qo'ydi. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'рни katta. Ayni vaqtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka bo'lgan ehtiyoj katta, talab kundan kunga oshmokda.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishga mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirishga alohida e'tibor berishi bilan asoslanadi. Mavzuning dolzarbligi hozirgi kunga kelib o'tilgan yo'lni aniq tahlil qilish afzalligini va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'rganish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ushbu soha muhimligini va zarurligini tushunish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida dolzarb masalalarni aniqlash va mazkur muammolarni hal qilish yo'llarini taklif qilish zarurligidan kelib chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik holatini har tomonlama tahlil qilib, muammolarini urganish va ularni bartaraf etish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Quyidagi vazifalarni bajarish uchun ilmiy-tadqiqot ish ob'ekti Samarkand viloyati Payariq tumanidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, predmeti esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy holati, bandlikni ta'minlashdagi o'rni, tashqi savdo faoliyati va moliyalashtirish masalalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning ahamiyati. Bayon qilingan tahlil va takliflar asosida qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari holatining tahlil qilish va muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu takliflarning hayotga tadbiq etilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik holatini takomillashtirish, tadbirkorlarning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Ilmiy ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – Bob. IQTISODIYOTNI MADERINZATSIYA QILISH SHAROITIDA KICHIK BEZNIS VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmuni, mohiyati va ahamiyati

Bugungi kunga kelib, respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida «tadbirkorlik», «tadbirkor», «biznes», «biznesmen» kabi terminlar keng qoʻllanila boshlandi. Ularning mazmuni va mohiyatini anglash maʼlum bir maʼnoda kichik biznes haqida tasavvurni shakllantiradi.

Tadbirkorlik oʻz ichiga ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Unda huquqiy, ruhiy, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy tomonlar mavjud. Mazmuni va mohiyati boʻyicha unumli faoliyatni anglatadi.

Tadbirkorlik tushunchasi XVI asrdan boshlab iqtisodchilar, ruhshunos va siyosatshunoslar fikrini oʻziga jalb eta boshladi. J.B.Sey, A.Marshall, V.Zombramb, Y.Shumpeter, F.Noytlar tadbirkorlikning ilmiy asoslari hisoblanadi.

XVI asrdan boshlab tadbirkorlik faoliyatiga diqqat-eʼtibor kuchaydi va iqtisodchi, ruhshunos va siyosatchilar buni oʻrganish uchun harakat qilib kelmoqdalar.

XVIII asrning boshida iqtisodiy nazariyaga birinchi boʻlib tadbirkorlik tushunchasini Angliya iqtisodchisi R.Kantilon kiritgan edi. U tadbirkorni foyda olishi chegaralanmagan va bahosi aniq tovarlarni sotib oladiyu, lekin sotish bahosi noaniq boʻladi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi, deb baholaydi. Jan Batist Sey esa tadbirkorni vositachi, ishlab chiqarish omillarining koordinatori, tajriba va bilim egasi, deb taʼriflaydi. Zombart esa tadbirkorlikdagi tavvakkalchilik faqat siyosat, savdodagina boʻlmay, boshqa sohalarga ham xos deb, ularni qaroqchi va bosqinchilar bilan tinglashtiradi. I.A.Shumpeterni olsak, u tadbirkorlikning 5 muhim tomonini: isteʼmolchilarga nomaʼlum yangi tovarlar ishlab chiqarishi;

yangi ishlab chiqarishni qo‘llashi va mavjud tovarlar tijoriyligini ta’minlashi; yangi tovarlarni o‘zlashtirishi; yangi xom ashyolarni ishlatishi; tarmoqni takomillashtirishini ko‘rsatib beradi. Tadbirkor mulkdor bo‘lishi shart emas, u yollanuvchi bo‘lishi ham mumkin. Tadbirkor yangi kombinatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsdir, deb ta’kidlaydi.

Hozirga kelib tadbirkorning faoliyat doirasi mazmunan, miqdor va sifat jihatidan ham o‘zgardi. Endi u mahsulotni qachon, qancha, qayerga, Kim uchun ishlab chiqarishi kerak degan masalalarni mustaqil hal etuvchiga aylandi. Bundan tashqari, qancha miqdorda ishlab chiqarish resurslari (bino, xom-ashyo, material, qurilma, mehnat, transport vositalari, kapital mablag‘lar, ombor maydonlari va h.k.) zarurligini aniqlaydi, ulardan oqilona foydalanish hisobiga yuqori foyda olishga harakat qiladi. Olingan daromadlar evaziga davlat buyudjeti to‘lovlarini to‘lash va faoliyatini yanada yuksaltirishni bosh maqsad deb hisoblaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorga qo‘yidagi ta’rifni berish mumkin.

Tadbirkor – o‘zining ma’lum bir miqdordagi moliyaviy mablag‘ini tavsakal qilgan holda bozorga yangi g‘oya, mahsulot, xizmat va ishlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxsdir.

Tadbirkorlik va biznes tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin. U ishbilarmonlikdan kelib chiqqan munosabat bo‘lib, biror bir unumli ish, faoliyat bilan bog‘liqlikni anglatadi.

Biznes bilan bokliq shaxs biznesmln deyiladi. Biznes – bu so‘z inglizchadan olingan bo‘lib, biznes – ish, men – odam degan ma’noni anglatadi. Tadbirkorlik (biznes), iqtisodiy kategoriya bo‘lib, xo‘jalik yuritish usuli, iqtisodiy fikrlash turidir.

Biznes ishlab chiqarishni tashkil qilishdan iborat foydali mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish tizimidir.

Biznes tushunchasi qachon, kim tomonidan, qanday vaziyatda dastlab ishlatilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar tarixiy manbalarda deyarli uchramaydi. Biznes so‘zi ingliz tilidan kelib chiqishiga qarab, uning vatani Buyuk Britaniya deb olishimiz ham mumkin. Yana bir asos XVIII-XIX asrlardagi sanoat inqilobi,

iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot ham Buyuk Britaniyada yuz berganini ham misol qilishimiz mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati natijalari xususiy mulk va mulkchilik munosabatlarining shakllanishi bilan yuzaga kelib, taraqqiy etgan bo'lsa-da, uning tom ma'nodagi mohiyati zamonaviy biznesning qaror topishida iqtisodiy erkinlik asosida tadbirkorlik olib borilishida yaqqol ifodalanadi.

Biznes – bu foyda (daromad) olish bilan bog'liq bo'lgan unumli faoliyat yoki shaxsiy foyda (daromad) topish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar to'plami. Biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni biznesmenlar yoki ishbilarmon, tadbirkorlar deb yuritiladi.

Tadbirkorlik ob'ekti deganda, avvalo ma'lum bir faoliyatni tushunamiz. Ular ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik, savdo-sotiq tadbirkorligi, moliya sohasidagi tadbirkorlik. Tadbirkorlik ishlab chiqilgan tovar (ko'rsatilgan xizmat)lar va shunga yarasha daromadga moddiylashadi. Daromad tadbirkorlik faoliyatini baholaydigan asosiy mezon hisoblanib, u faoliyatning barcha omillaridan oqilona foydalanishga bokliq. Tadbirkorlik boshida ma'lum bir soha faoliyat ko'rsatish imkonini belgilash uchun kerak bo'lsa, so'ngra bunday resurslarning yangi kombinatsiyalari tadbirkor uchun o'ta zarur bo'lib qoladi. Ko'rinib turibdiki, real holatda tadbirkorlikning ob'ekti resurslar kombinatsiyasini amalga oshirishdan iborat ekan.

Bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining xo'jalik faoliyatida «tadbirkorlik» va «biznes» tushunchalari o'zaro yaqin bo'lib, amaliyotda ular bir-birini almashtirishlari mumkin. Rus adabiy tili lug'atida «biznesmen» guyoki tadbirkor, ishchan deb bilinsa, «biznes» esa – faoliyat, foyda keltiruvchi mashg'ulot deb tushuniladi. «Tadbirkor» va «biznesmen» kabi tushunchalar bilan ishlab chiqarish, dallolchilik, savdo, moliyaviy va innovatsiya faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi va ma'lum miqdorda daromad olish niyatidagi inson ifodalanadi.

Vatanimiz va xorijiy davlat olimlari bozor iqtisodi jarayonini tadqiq qilar ekan, tadbirkorlik va biznesni iqtisodiy faoliyatning bir turi deb qarab, bu tushunchalar xususiy shaxslar, korxona tashkilotlar tomonidan daromad olish

maqsadida o'zining va shartnomadagi sheriklarining manfaatlarini ko'zlab, ishlab chiqish, tovar sotib olish va sotish yoki boshqa tovarlar, xizmatlarga yoki pulga ayiraboshlash kabi erkin xo'jalik yuritish faoliyatini bildiradi, deb hisoblaydilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, shuni aytish mumkinki, uning ijtimoiy vazifasining ahamiyati iqtisodiy vazifasidan kam emas. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholining bandligi va daromadini oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Ijtimoiy qatlamlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni silliqib, alohida ijtimoiy iqlimni yuzaga keltiradi; raqobatning rivojlanishiga, binobarin, raqobatli tovar narxlarining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bundan iste'molchilar va umuman jamiyat manfaat ko'radi; sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning kengayishiga zamin yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan manfaat nima degan savolga javob nafaqat ko'p sonli tadqiqotlar natijasida, balki hayot tajribasidan ham olingan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – aholining talab qismi uchun mehnatini qo'llaydigan jabha va daromad manbai. Bu – yetarli malaka va tajribasi bo'lmagan, qayishqoq jadvali ish kunini istagan aksariyat mehnat resurslarini mashg'ul etuvchi mehnat bozorining eng moslashtiruvchan qatlamidir. Ayollar, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar, ma'lumoti va mehnat tajribasi yuqori darajada bo'lmagan shaxslar ko'pincha faqat shu yerda ish topishlari mumkin. Bu sohada kishilarning aksariyat qismi uchungina emas, balki ularning oila a'zolari uchun ham asosiy daromad manbai bo'lish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy farovonlikning o'sishi uchun muhim omil bo'lishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashuvchanlik darajasiga oshirishning samarali vositasidir. Fuqarolarga nafaqat ishchi kuchi, balki o'z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishga imkon yaratib, u o'rta sinf jamiyatning progressiv taraqqiyotini

ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun nasos yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular iste'mol talabining o'zgarishlariga hammadan tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishiga muvofiq tarzda aks ta'sir ko'rsatadi, o'z faoliyatini tashkil qilish uchun kamroq resurs talab qiladi va xonavayron bo'lgan holda jamiyat uchun fojyaviy oqibatlarga olib kelmaydi.

Alohida shaxs uchun boshqa faoliyat bilan bir qatorda, kichik va xususiy tadbirkorlik bilan shukullanish bandlik va daromadlar; o'z kelajagini yaxshiroq tashkil qilish imkoniyati; ish va shaxsiy hayotni yanada yaxlitroq birlashtirish imkoniyati, o'z ishini topish, o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu kabi potensial imkoniyatlari uning rivojlanishiga jiddiy e'tibor berishga majbur qiladi.

Butun dunyo doirasida tadbirkorlikning ming asrlik rivojlanish tarixiga qaramay, iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda amalga oshirila boshlandi. Biroq, hozirga qadar jamiyatchilik fikrida «tadbirkorlik» tushunchasining ko'p ma'noligi saqlanib kelinmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha haqida ko'pincha bu favqulotda hodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruhiy tavsiflari ekspektiv (turli-tuman qarashlar) to'plamidan iborat har xil tasavvurlar mavjud. Tadbirkorlik vazifasiga doir muhim jihatlarning tarixiy o'zgaruvchanligi bilan birga bu tushunchaga yangi ma'nolar kiritilmoqda.

Dastlabki bosqichlarda tadbirkorlikning eng muhim alomati biron-bir shaxs tadbirkor faoliyatini foydali va zararligini belgilovchi noaniqlik omili hisoblangan. Tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi turli bozorlarda talab bilan taklif orasida muvozanat o'rnatishga doir tavakkalchilik holatidan iborat, deb tan olingan.

Tadbirkorlik tushunchasi mohiyatini uning faoliyati va imkoniyatlari sohalarini yaxshiroq tushuntirish uchun uning mohiyati va iqtisodiyotdagi o'rni

bo'yicha qarashlar tizimining rivojlanishini iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik jihatlar nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

Tadbirkorlik tushunchasini hozirgi zamon mazmunida birinchi bo'lib Angliya iqtisodchisi Richard Kantilon XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida tilga olingan. U tadbirkor – tavakkalchilik sharoitida ish olib boruvchi odam degan fikrni ilgari surgan. Richard Kontilon fikricha, boylik manbai – yer va mehnat bo'lib, bular iqtisodiy manfaatlarning haqiqiy qiymatini aniqlaydi. R.Kontilon tadbirkorlarni noaniqlik sharoitida qaror qabul qiluvchi va o'z ixtiyorini qondiruvchi shaxs sifatida ko'rib chiqqan. U tadbirkor daromadi – bu xavf-xatar uchun to'lov, deb hisoblagan.

Keyinchalik 1929-1930 yillarda chop etilgan olti tomlik «Siyosiy iqtisod kursi» muallifi taniqli fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832) mahsulot yaratishda tadbirkorlikning faol rolini yoritib berdi. Uning hisoblashicha, tadbirkorlik faoliyati asosida mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish qobiliyati yotadi. Sey uchun tadbirkor – bu odamlarni ishlab chiqarish birligi doirasida birlashtiradigan shaxsdir. U tadbirkorni ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonining markaziga qo'ygan.

A.Smit «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari tadqiqoti (1776 yil) kitobida tadbirkor va uning iqtisodiyotdagi o'zni xavfli tijorat g'oyalarini amalga oshiruvchi shaxs sifatida tavsiflagan. A.Smit qarashlari bo'yicha tadbirkor o'zi sarmoya kiritadi, rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi va o'z mehnati natijalarini o'zi tasarruf etadi. Uning foydasi - bu mulkdorning xavf-xatar qoplanmasidir.

A.Smit fikricha, boshqaruvchilar tadbirkorlik faoliyatiga o'zgacha munosabatda bo'lgan: «O'z mablaklariga nisbatan ko'proq boshqalar mablaklarini boshqaradigan hissadorlik kompaniyalari boshqaruvchilaridan xususiy savdo jamiyatlari qatnashchilari o'z sarmoyasini boshqarishda namoyon qiladigan o'ta ehtiyotkorlikni kutmasligi kerak. Shuning uchun ehtiyotkorsizlik bunday tashkilotlar boshqaruvida ozmi-ko'pmi namoyon bo'ladi».

A.Smitning kitobi 1766 yilda, ya'ni Amireka Qo'shma Shtatlari mustaqilligi to'krisida dikloratsiya e'lon qilindi va bosib chiqarildi. R.Xalbroker,

L.Tarou va boshqa bir qator iqtisodchilar fikricha, bu ikki xodisadan qaysi biri ko‘proq tarixiy ahamiyatga ega ekanligi to‘krisida xulosaga kelish mushkuldir. Ular dikloratsiyani «Hayot, ozodlik va baxtga» asoslangan jamiyatni barpo etishga chaqriq deb, A.Smitning asarini aynan shu jamiyatni qanday ishlatish kerakligini ko‘rsatuvchi qo‘llanma deb hisoblaydilar. Bozor qatnashchilari, deb yozadi A.Smit, «pul qilishga», «o‘z xatolarini yaxshilashga» intiladilar.

A.Smit yozadiki, bozor bizlarni bozor tizimining mexanizmi – raqobatchilar mexanizmi bilan tanishtiradi. U aytadiki, o‘z ahvolini yaxshilash uchu nish yuritayotgan har bir shax sbir shaxs ro‘parasida bozorda xuddi shu maqsadni ko‘zlagan odamlar tudasi turadi. Natijada, bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir sub’ekt, raqobatchilar tomonidan taklif etilgan narxlarni qabul qilishga majbur bo‘ladi. A.Smit ta’kidlaydiki, bunday raqobatchilik sharoitida, raqobatbardoshlarga qaraganda ortiqroq narx so‘ragan ishlab chiqaruvchi haridor topishga qiynaladi.

Shuningdek, raqobatbardoshlarga nisbatan ishchilarga ozroq ish haqi berishni ko‘zlagan tadbirkor ishchilarni topishga qiynaladi. Shunday qilib, bozor mexanizmi bozorning barcha qatnashchilarini tartibga soladi.

D.Rekardo kapitalizmga absolyut, barhayot, tabiiy ishlab chiqarish usulini ko‘radi va tadbirkorlik faoliyatini samarali xo‘jalik yuritishning majburiy elemnti sifatida tan oladi.

K.Marksning iqtisodiy nazariyasi asosida esa tadbirkor kapitalist-ekspluatator sifatida ko‘rsatiladi. Faqat XIX asr oxiri XX asr boshlarida tadbirkorlikning tutgan o‘rni va mohiyati tan olina boshlandi. Fransuz iqtisodchisi A.Marshall (1906-1968) yuqorida keltirilgan uch klassik omilga (yer, kapital, mehnat) to‘rtinchi omil tashkilotchilikni qo‘shdi. Shu davrdan boshlab tadbirkorlik tushunchasi rivojlana boshlandi.

Amirekalik iqtisodchi V.Klark (1847-1938) Seyning «uchlik» formulasi ko‘rinishini bir muncha boshqacha ko‘rinishda izohlaydi. Uning fikricha ishlab chiqarish jarayonida har odir to‘rtta omil qatnashadi: 1) kapital; 2) kapital manfaat-ishlab chiqarish vositasi va yer; 3) tadbirkorlik faoliyati; 4) ishchi mehnati. Bu

borada har bir omilga ishlab chiqarishdan tushgan tushumning Biron bir hissasi to'kri kelishi shart: kapital kapitalistga foiz keltiradi; kapital manfaat renta; kapitalistning tadbirkorlik faoliyati natijasida vujudga kelgan mahsulotni beradi. Amerikalik iqtisodchi J.B.Klark o'sha davrda tadbirkorlik faoliyatini aynan shunday tushuncha edi.

Kelib chiqishi Avstraliyalik bo'lgan, amerikalik mashhur iqtisodchi A.Shumpeter (1883-1950) «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» nomli kitobida (1911) «tadbirkor» iborasini novator (yangilik yaratuvchi, izlanuvchi) sifatida talqin etgan. Uning ta'kidlashicha, tadbirkor funksiyasi kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida bosh rolni o'ynaydigan yangiliklarni joriy etishda namoyon bo'ladi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Dj.M.Keyns tadbirkorlik to'krisidagi zamonaviy tasavvurga salmoqli ulush qo'shdi. U «tadbirkor» tushunchasini «...Veberning rotsional kolkulyatsiyasi yoki Shumpeterning novatorligi emas, balki ma'lum psixologik xususiyatlar to'plami» muhim bo'lgan xo'jalik sub'ektining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik shakli sifatida ta'riflaydi. Keyns asosiy tadbirkorlik xususiyatlariga iste'mol va jamkarish ko'nikmalari, tavakkalchilik qobiliyatlari, faoliyat ruhi, kelajakka ishonch va shu kabilarni kiritadi. U tadbirkorlik faoliyatining asosiy rakbatalri sifatida mustaqillikka, samaraga intilish, avlodlarga boylik qoldirish istagini ko'rib chiqadi.

Bu masalaga Angliya iqtisodchisi, iqtisod bo'yicha 1974 yil Nobel mukofoti lauriyati F.A.Xayek yangicha yondoshdi. Uning fikricha, tadbirkorlikning mohiyati yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlash va o'rganishda bo'lib, faoliyat turi hisoblanmaydi.

Qaror qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olish kabi bir qator funksiyalar tadbirkorlikni boshqaruv faoliyati bilan boklaydi. Shu bilan birga tadbirkorni mlnejer bilan adashtirish mumkin emas. Ularning funksional mohiyati tubdan farq qiladi. Bir tomondan, tadbirkorlik boshqaruv faoliyatidan kengroqdir. Boshqa tomondan, samarali boshqaruv mlnejmlnt, hozirgi kundagi faoliyat darajasi bo'yicha barcha tadbirkorlikning ham qo'lidan keladigan ish emas.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi sharoitda «tadbirkor» va «menejer» tushunchalari ko‘p hollarda mos keladi, vaholanki, ulardan biri mulkdor bo‘lsa, ikkinchisi boshqaruvchidir. Amalda ko‘p mulkdorlar menejer funksiyasini bajaradi va aksariyat menejerlar keyinchalik o‘zlari boshqarayotgan ishlab chiqarish vositalariga egalik qiladilar.

Ensiklopedik lug‘atda «tadbirkorlik» tushunchasi quyidagicha talqin etiladi:

Tadbirkorlik (inglizcha entzeprise) fuqarolarning mustaqil tashabbus faoliyati bo‘lib, u foyda va shaxsiy daromad olishga yo‘naltirilgan va o‘z nomidan, o‘z mulkiy javobgarligi ostida yoki huquqiy javobgarlik ostida huquqiy shaxs nomidan ish yuritadi. Tadbirkor (inglizcha - entrepreneuz) qonun bilan ta’qiqlanmagan, barcha turdagi xo‘jalik yurituvchi faoliyatni, jumladan, tijorat – vositachilik, oldi-sotdi, konsultatsiya berish va boshqa faoliyatlarni, shuningdek qimmatli qozonlar bilan ishlashni amalga oshiradi.

Quyidagilar kichik tadbirkorlik sub’ektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 10 kishi, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 5 kishi bo‘lgan mikrofirmalar;
- yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yokochsozlik, mebelsanoatidagi band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik ko‘pi bilan 100 kishi; mashinasozlik, metallurgiya, yoqilki-energitika va Kime sanoati, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlabch iqarish sohalaridagi band bo‘lgan aholining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 50 kishi; fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sukurta kompaniyalaridan tashqari) savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalaridagi band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 25 kishi bo‘lgan kichik korxonalar.

Xodimlarning o'rtacha yillik soni kichik korxonalar uchun belgilanganligidan ko'proq, ammo sanoatda 100 kishidan, qurilishda – 50 kishidan, qishloq xo'jaligidagi, boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, ulgurji savdo, umumiy ovqatlanish tarmoqlarida – 30 kishidan, chakana savdo, xizmat ko'rsatish sohasi va noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida 20 kishidan ko'p bo'lmagan korxonalar o'rta tadbirkorlik sub'ektlaridir.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko'p tarmoqli, yuridik va jismoniy shaxslar yillik oborot hajmida ulushi eng ko'p bo'lgan faoliyat turi mezonlari bo'yicha kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari jumlasiga kiritiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishni o'ziga xos modeli yaratilgan bo'lib, uning 5 ta ustuvor yo'nalishi Respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslangan va ishlab chiqilgan. Ushbu yo'nalishlarga mos O'zbekiston Respublikasidagi xususiylashtirish modeli ishlab chiqilgan. Xususiylashtirish modeli quyidagilardan iborat:

- xususiylashtirish respublikada o'tkazilayotgan islohotlarning o'zagini tashkil qilib, uning ichki mantiqiga bo'ysindirilgan;
- xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;
- xususiylashtirishda qonunning ustuvorligiga birlamchi bo'lib, barcha jarayon, istisnosiz, taalluqli qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatalrga rioya etish shart;
- xususiylashtirish aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, aholi o'sishini hisobga olish, asta-sekin ijtimoiy kafolatlar tizimiga o'tishini e'tiborga olishga yo'naltirilishi;
- xususiylashtirish jahon tajribasini hisobga olgan holda, inqilobiy sakrashlarsiz, bosqichma-bosqich evolyutsion yo'l bilan amalga oshirilishi.

Taniqli olimlarning olib borilgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorning o'z faoliyati sohasida olib boriladigan ishlari ko'p qirralidir. Bu bozor siyosatining o'zgarishi bilan yoki korxonaning ichki va tashqi omillari ta'sirida aniqlanadi. Lekin tadbirkorning asosiy maqsadi manfaat (foyda) ko'rish bilan bir qatorda, bozorda samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlaydigan ishlarni

amalga oshirishdir. Buning uchun tadbirkorlikni boshqarish va unga ko'mak beruvchi zamonaviy menejment usullariga asoslangan mexanizmni yaratish va undan unumli foydalanishni ta'minlash zarurdir. Bozor sharoitida tadbirkorlikni boshqarishda uning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish kerak:

- tadbirkorlik har doim bozordagi talab va taklifni e'tiborga olib ish ko'radi;

- tadbirkor samaradorlikni ta'minlovchi say-harakatlar qilib, ishlab chiqarish harajatlarni kamaytirish yo'llarini qidiradi;

- kichik biznes va tadbirkorlikning pirovard natijalariga javob beradigan shaxslar, o'z biznesini erkin shart-sharoitlarda olib borishlariga yetarli imkoniyatlar yaratishadi;

- kichik korxonalarning pirovard natijalari, ya'ni uning oladigan foyda yoki zarari faqat bozordagi oldi-sotdi jarayonida ma'lum bo'ladi;

- kichik va o'rta xususiy tadbirkorlik bilan shukullanuvchi tadbirkor o'z mablaklarini harakatga solib, bozorda qanday xavf-xatarga duch kelishini yoki yakuniy natija qanday bo'lishini aniq bilmaydi.

Shunday qilib, tadbirkor – bu iqtisodiy faoliyatni alohida turi bo'lib, uning zahirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tadbirkorlik koyasiga asoslangan, foyda olishga yo'naltirilgan, maqsadga muvofiq faoliyat tushuniladi.

Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo'lib, uning boshlanish bosqichi, odatda, fikrlash faoliyati yoki uning natijasi bilan boglangan bo'ladi, faqat u keyin moddiy shaklni oladi.

Tadbirkorlik yangilik kiritish, tovar ishlab chiqarish faoliyatini o'zlashtirish yoki korxonani (shu jumladan, kichik korxonani) tashkil qilish sohasida ijodkorlikning mavjudligi bilan ta'riflanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimda ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini tadbiriq etishda o'z ifodasini topadi.

Tadbirkorning o'zi tadbirkorlik faoliyatining asosiy sub'ekti bo'ladi. Ammo tadbirkor yagona sub'ekt emas, har qanday holda u ishlab chiqarilgan tovar

yoki xizmatning iste'molchisi hamda har xil vaziyatlarda yordamchi yoki raqib sifatida bo'luvchi davlat bilan o'zaro hamkorlik qilishga majbur. Iste'molchi ham, davlat ham yollanma (ishchi) xodim ham tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari qatoriga kiradilar.

Tadbirkor va iste'molchining o'zaro munosabatlarida tadbirkor faol sub'ekt kategoriyasiga kiradi. Iste'molchi esa bunda passiv rol o'ynaydi. Bu o'zaro munosabatlarni tahlil qilishda iste'molchi tadbirkorlik jarayonining indikatori rolini bajaradi. Tadbirkor faoliyati predmetini tashkil qiluvchi barcha narsa iste'molchining ijobiy bahosiga ega bo'lgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Bunda iste'molchi tomonidan tovarga baho beriladi va keyin u yoki bu tovarni harid qilishga tayyorligi aniqlanadi. Tadbirkor o'z faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilishda iste'molchining kayfiyati, istagi, manfaatlarini hisobga olishi kerak.

1.2. Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish huquqiy asoslari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning huquqlari asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga ko'ra, bozor munosabatlariga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini har xil shakllaridagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilar huquqi ustunligini hisobga olib, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan teng muhafaza etilishini kafolatlaydi. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdan mahrum etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik to'g'risidagi qonunida tadbirkorlikning iqtisodiy-huquqiy mustaqilligi hamda ushbu mustaqillikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan kafolotlar tadbirkorlikning huquq va ma'suliyati aniq belgilangan. Ushbu qonunda tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari bilan munosabatlarini tartibga solishga taaluqli qoidalar ham yoritib berilgan.

Ushbu qonun vositasida fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati tartibga solingan tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy kafolatlari belgilab berilgan.

Qonun mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini erkin tanlashga, bu shakllarni teng huquqlik asosida amal qilishiga, o'zaro hamkorlik va erkin raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratilishiga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, respublikada mustaqillik yillarida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yer to'g'risida»gi, «Mulk to'g'risida»gi, «Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi, «Korxonalar to'g'risida»gi, «Kooperatsiya to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi, «Manapolistik faoliyatni cheklash to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari va chet el investorlari faoliyatlari kafolatlari to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Xususiy korxona to'g'risida»gi Qonunlari tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy bazasini tashkil etadi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi. Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning maqsadi 1999 yilda «O'zbekiston Respublikasida kichik vaxususiy korxonalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash Davlatdasturi» qabul qilingan. Bu dasturning muhim bir tomoni shundaki, unda qishloq joylarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu davlat dasturi iqtisodiyotni erkinlashtirish tadbirlari to'plamini ko'zda tutadi, mamlakatda kichik vaxususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadlarini belgilab beradi.

Dasturning bosh maqsadi:

-Respublika aholisining barcha tabaqalarini bozor sharoitiga ko'niktirish, boqimandachilik, iste'molchilik psixologiyasini bartaraf qilish, ularda tadbirkorlik, xususiy biznes bilan faol shug'ullanishga qiziqish uyg'otish;

-tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelayotgan makroiqtisodiy muammolarni hal etish, ayniqsa, qishloq joylardan bandlik masalalarini yechishda aktiv ishtirok etish;

-qishloq joylarda tuzilmani jadallashtirish va halol raqobrt uchun qo‘lay sharoitlar yaratish;


-tovar va xizmatlar hajmini orttirish, shu jumladan, bank, auditorlik, konsalting, vositachilik va ilmiy izlanishlar borasidagi xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish;

- xo‘jalik yuritishning ilg‘or shakillarini joriy etish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

- ichki va tashqi bozor talablarini ta‘minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari rolini yanada oshirish.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash Davlat dasturi tuzilishi quydagi chizmada berilgan.

1-chizma



1-chizma. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi.

Davlat dasturining asosiy vazifalari:

- qishloqda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ustuvor rivojlantirish;

- qishloqda bozor infratuzilmalarini tashkil etishni yaratish jarayonlarini boshqarish, uni jahon iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, viloyatlarda ichki va

tashqi aloqalarni muvofiqlashtiruvchi va rivojlantirishga da'vat etilgan tadbirkorlik departamentlarni tashkil etish;

-kreditlar, shu jumladan, imtiyozli kreditlar berish asosida ustuvor loyihalarni mablag'lar bilan ta'minlash, axborot-maslahat xizmatlarini, sug'urta tizimi va uning hududiy agentliklarini tashkil etishdan iborat.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qullab-quvvatlash davlat dasturini muvoffaqiyatli amalga oshishini ta'minlash maqsadida «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida», «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi.

Tadbirkorlikning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar va boshqa qonuniy hujjatlar belgilaydi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risidagi qonun.
- ❖ Tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1997 yil, 24 aprel qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997 yil 4- 5 son.
- ❖ O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonuni.
- ❖ O'zbekiston Respublikasi «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida» gi qonuni.
- ❖ O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni.
- ❖ O'zbekiston Respublikasi kichik korxonalar to'g'risida Nizom.
- ❖ O'zbekiston Respublikasi xususiy tadbirkorlik to'g'risida Nizom.

- ❖ Kichik va oʻrta tadbirkorlikni rivojlantirishni ragʻbatlantirish mexanizmini takomillashtirish. (Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 y., 27 may 232 – sonli qarori).
- ❖ Tadbirkorlik faoliyatini yanada kullab-kuvvatlash va rivojlantirish chora tadbirlari. 2009 yil 15 may PK-1112 sonli karori.

Tadbirkorning huquqlari

Har bir fuqaro (bir guruh fuqarolar) xoʻjalik yurituvchi boshqa subʼektlar bilan teng asoslarda:

- ❖ Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan shartlarga rioya qilgan holda korxonalar va tashkilotlarni vujudga keltirish, taʼsis etish, sotib olish va qayta tuzish yoʻli bilan tadbirkorlik faoliyatini boshlash va davom ettirish;
- ❖ tadbirkor turli darajada mulkiy javobgar boʻladigan oʻz tadbirkorlik tashkilotini taʼsis etish;
- ❖ bu faoliyatni bajarish uchun boshqa yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning mol–mulkini hamda pul mablagʻlarini ixtiyoriy asoslarda jalb etish;
- ❖ xodimlarni mustaqil yollash va ishdan boʻshatish;
- ❖ tadbirkorlikdan soliq solinadigan cheklanmagan miqdorda daromad orttirish;
- ❖ ijtimoiy taʼminlanish va ijtimoiy sugʻurta qilinish xuquqlariga ega.

1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy davlatlarning tajribalari

Prezident I.A.Karimov oʻzining “Oʻzbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yoʻlida” asrida batafsil tuxtalib oʻtgan iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning muammolari oʻrtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlini rivojlantirish muammosi alohida oʻrin tutadi. Yangi iqtisodiy munosabatlariga oʻtish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yangi iqtisodiy tizimda asosiy oʻringa ega ekanligini koʻrsatadi. Shuning uchun Oʻzbekiston Respublikasi uchun mos

keladigan modelni tanlash maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganishni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida kichik korxonalarning mavjudligi uning hayot qobiliyatini oshiradi, unga zaruriy qayishqoqlik darajasini beradi. So'nggi o'n yil ichida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning miqdoriy o'sishiga moyillik shu bilan izohlanadi.

Buyuk Britaniyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga qiziqish 1970 yillar boshlarida kuchaydi. Bu davrda E.Xit boshchiligidagi konservativ xukumat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi vaziyatni o'rganish va mos tavsiyalar ishlab chiqish uchun Bolton komissiyasini shakllantirdi (1971yil). Konservatorlarning so'nggi boshqaruvi davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sog'lomlashtirish uchun maksimal qulay shart-sharoitlar yaratildi, 96 foiz xodimlar soni 20 kishigacha bo'lgan firmalarni tashkil etgan kichik korxonalar sektori bozor iqtisodiyoti tuzilmasiga uzviy kirib boradi va uning zaruriy shart-sharoitlarga aylandi. 1997 yil may oyida konservatorlar o'rniga kelgan leyboristlar hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va saqlash bo'yicha ilgari qabul qilingan qonun va dasturlarni qo'llab – quvvatlaydi.

Buyuk Birtaniyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishda davlatning byudjet (soliq va kredit) siyosati katta o'rin egallaydi. Umumiy chora-tadbirlarga kichik korxonalarga nisbatan kichik soliq stavkalarini belgilash, hisob-kitob schetlarining kechiktirilgan to'lovi, qushilgan qiymat solig'ini hisoblash uchun balansni faqatgina schetlar to'langanidan so'ng tuzish va xokazolar kiradi.

Byudjet chora-tadbirlaridan tashqari kichik korxonalarga mahalliy mulk solig'i o'ndirilganda imtiyozlar beriladi, bu likvidlik muammosini qisman hal qilish imkonini beradi.

Alohida vazirliklar (Savdo va sanoat, bandlik, ekologiya, energitika Vazirliklar)kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ko'llab quvvatlashning 4 toifasini ishlab chiqqanlar.

Yangi va faoliyat yuritayotgan firmalarga malaxatlar berish dasturlari. Bu maqsadlarda xududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanadigan kichik korxonalar xizmati, Uelsin rivojlantirish agentligi kabi maxsus tashkilotlar tuzilgan. Britaniya sanoati konfederatsiyasi bilan hamkorlikda ular kichik korxonalarga turli savollar bo'yicha maslaxatlar berish ko'rinishdagi yordam dasturini taklif etdilar.

Moliyaviy – yordam ko'rsatish dasturlari. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

“Grantlar sxemasi” xududiy miqyosda kichik korxonalarga moliyaviy yordam ko'rsatadigan “Mahalliy korxonalarga yordam berish agentligi” o'z ishini boshlash istagida bo'lgan ishsizlarga yordam berishni ko'zda tutadigan “Korxonalar tuzushda kumaklashish sxemasi”, “Kreditlarni kafolatlash” –dastur uch yilga muljallangan bo'lib, ishi yurishgan ishbilarmonlar nomidan sug'urta mukofatlarini berishni ko'zda tutadi. Maxsus dasturlar yoshlarga o'z ishini tuzish yoki rivojlantirishda moliyaviy yordam berishni ta'minlaydi.

Shotlandiya, Uels, Shimoliy Irlandiyada amalda bo'lgan kichik korxonalarga yordam berishning xududiy dasturlari. “Biznesni takomillashtirish xizmati” dasturi bo'yicha xududlarda bunday korxonalar uchun bozor strategiyalari ishlab chiqildi (assignatsiyalarning 50 foizi marketing tadqiqotlariga, qolgani esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida malakali kadrlar tayyorlashga sarflanadi).

Kichik korxonalarning eksport faoliyatini rag'atlantiradigan dasturlar, asosan maxsus organ Britaniyaning dengiz orti savdosi byurosi tomonidan amalga oshiriladi.

Xukumat o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida “Tadbirkorlik tashabbusi” umumiy nomga ega bo'lgan bir qator dasturlarni ishlab chiqqan.

Italiyada kichik korxonalar, yangi ishlab chiqarish shaklini joriy etish va butun mamlakat bo'yicha samarali korxonalar tarmog'ini tuzish orqali sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishga va kengaytirishga katta hissa qushgan. Boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan, Italiya tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, Italiya kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qo'shimcha asosiy elementi – bu

tadbirkor o'zining jalb etilishi, shuningdek ularning tavakkal qilish qobiliyati va bunga tayyorligi hisoblanadi. Italiya kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni – xususiy tadbirkorlarning shaxsiy urinishlari natijasi bo'lib, u korxonalar joylashgan va faoliyat yuritayotgan xududlar va tadbirkorlik muhiti bilan o'zaro munosabatlardan yelib chiqadigan tadbirkorlik g'oyalari va loyihalariga asoslanadi. Italiya kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining sanoat rivojlanishidagi roli juda muhim, chunki ularni ish joylarni yaratishdagi hissassi yirik korxonalardagiga nisbatan ancha yuqori. Mutaxassislarning aytishicha, Italiya kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ideal instrument hisoblanadi. Boshqa tarafdin, Italiya iqtisodiy tizimi – xaqiqiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi, beb aytish to'g'ri bo'ladi, chunki: 10 ta korxonadan 9 tasida xodimlar soni 200 kishidan oshmaydi, 10 kishidan 7 tasi esa kichik korxonalarda ishlaydi. Italiya tashqi savdo balansi tashqi savdoga qaratilgan sektorlarda, ayniqsa mebel, uy dizayni, oziq ovqat sanoatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini birinchi o'ringa qo'yadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga asoslangan iqtisodiy tizim tufayli Italiya aktiv tijorat saldosi ga egadir. Italiyaning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sanoati korxonalari mahalliy darajada faoliyat yuritadi, lekin ularning faoliyati xalqaro bozorlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Italiyaning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining rivojlantirish bo'yicha tajribasi shundan dalolat beradiki, ularning qo'plab hamkasiblari xorijda ham samarali faoliyat yuritadi. So'nggi o'n yil ichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon miqyosida Italiya iqtisodiyotining asosiy elementiga aylandi: xorijda faoliyat yuritayotgan 160 ming kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari eksportning taxminan 4/5 qismini va xorijiy tashkilotlarga (asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalariga) kapital quyilmalarning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Bu tashkilotlarning ko'pchiligi "italiyada ishlab chiqarilgan" tamg'asi ostida xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish qobiliyatiga ega bo'ladi va ayrim xollarda dunyo yetakchilariga aylanadi. Albatta, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasida Italiya tajribasi eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri hisoblanadi. Buni xorijiy davlatlardan

kelayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasida ikki tomonlama kelishuvlarni imzolar takliflari sonining oshishidan ko'rish mumkin. Yaqinda Italiya sanoati Vazirligi Rossiya, Zimbabve, Polsha, Vetnam, Vengriya, Koreya bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasida xalqaro bitimlarni imzoladi. Ushbu davlatlarning qiziqishi Italiyaning ushbu soxadagi tajribasidan dalolat beradi.

Germaniyada kichik korxonalar, odatda jismoniy shaxslarning xususiy mulki hisoblanadi va o'z – uzini moliyalashtirishga qo'shimcha ravishda bank kreditlaridan foydalanadilar. Aksiyalari birjada talabga ega bo'lgan korxonalar soni juda oz Xorijiy investorlar odatda yirik korxonalar aksiyalarning egalari bo'lib hisoblanadilar, ularning sarmoyadagi ulushi taxminan 12 foizni tashkil etadi. Germaniya banklari korxonalar bilan nafaqat kreditorlar sifatida, balki hissadorlar sifatida ham bog'liq ularning korxonalar sarmoyasidagi ulushi urtacha 14 foizni tashkil etadi bu ko'rib chiqilayotgan mamlakatlar urtasida eng yuqori ko'rsatkich.

Fransiyada xususiy va davlat tashkilotlari raxbarlari, qoida bo'yicha, boshqa tashkilot ma'muriy kengash (boshqaruv) a'zolari hisoblanadi. Bu yerda davlat va xususiy sektor urtasidagi aloqalar kuchli hisoblanadi. Xususiylashtirishning "ikkinchi tulqini" asosan boshqa korxonalar qulida mujassamlangan aksiyalar bozorining kengayishiga kumaklashadi: sarmoyadagi ularning ulushi 59 foizni tashkil etadi, bu boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori. Tashqi investorlar tomonidan korxonalar ustidan nazorat urnatish bo'yicha operatsiyalar kam uchraydi. Fransiya korxonalari aksiyalarining katta qismi boshqa korxonalar qulida bo'lganligi ularga tashqi moliyalashtirishning ikkita asosiy manbai banklar va moliya bozorida operatsiyalar urtasida erkin tanlash imkonini beradi. Oxirgi yillarda fransiya korxonalarining banklar bilan aloqalari sustlashishi ko'zatilmoqda. Italiyada korxonalarda mulkdorlikni va nazoratni tashkil etish Fransiyadagiga uxshash sanoatda kuplab oilaviy kichik korxonalari va yirik hissadorlik korxonalari mavjud bo'lib, ularning sarmoyasida davlat ulushi taxminan 28 foizni tashkil etdi. Oxirgi yillarda Italiyada Fransiya misoli bo'yicha davlat tashkilotlari xususiylashtirilmoqda. Italiya korxonalari bir nechta bank

xizmatlaridan foydalanishi korxonalar va banklar urtasidagi mutaxkam va uzoq muddatli aloqalarni yaratmaydi. Ammo oxirgi paytlarda ruy berayotgan o'zgarishlar, shu jumladan unversal banklar modeliga o'tish va olingan qazlarning sanoat guruxlari bosh korxonalari darajasida konsolidatsiyasi banklar va korxonalar urtasida uzoq muddatli aloqalarning mustahkamlanishiga va banklar tomonidan korxonalarni bank tomonidan kreditlashga asoslangan tashqi moliyalashtirish modeli shakllanishi mumkin.

Amerika Qushma Shtatlarining zamonaviy kichik kichik biznes siyosati boshlanishi 1953 yilda kichik biznes Agentligining vujudga kelishiga tug'ri keladi. Kichik biznesga kumaklashishning asosiy sababi iqtisodiy foyda olish hisoblanardi. Kichik biznesga kumaklashishning asosiy vositasi sarmoya va kredit berish hisoblanadi, bu esa o'z navbatida AQSH da tadbirkorlik siyosati maqsadlariga mos keladi. Yaponiyada kichik biznes siyosati sanoatning rivojlantirish siyosatining tarkibiy qismi hisoblangan. Ushbu siyosat urushgacha bo'lgan davrdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Yaponiya raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida doimiy restrukturizatsiyani ta'minlaydi. Chponiya va AQSH kichik siyosatda ikkita asosiy farq mavjud. Ulardan biri siyosatni shakllantiradigan va siyosatning o'ziga xos rivojlantirishning qo'llab – quvvatlaydigan tarixiy vujudga kelishi va ijtimoiy – iqtisodiy qimmatliklar bilan asoslanadi. Ikkinchisi – siyosiy va byurakratik tizimlardagi farqlar bo'lib, ular siyosatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, kichik biznes yirik biznes patronaji ostida samaradorlik darajasini, texnologik taraqqiyot sur'atlarini belgilaydi. Kichik biznes roli esa yirik biznesning rivojlanish darajasiga bog'liq bulsa ham, maxsus va ahamiyatli hisoblanadi.

II-bob. Payarik tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlanish holati va ularning aholini ish bilan ta'minlashdagi o'rni

2.1. Payarik tumanining ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi

2013 yilda Samarqand viloyati Payariq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan. Jumladan, 2013 yilda Samarqand viloyatida sanoat mahsuloti 3298,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga taqqoslaganda 113,6 foizga o'sgan. Payariq tumanida bu ko'rsatkich 78,6 foizni tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga taqqoslaganda 113,2 foizga oshgan. Iste'mol tovarlari ham 20,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan, 2012 yilga taqqoslaganda 102,7 foizga o'sgan. Qishloq xo'jalik mahsulotlari viloyat bo'yicha 3732,3 mlrd, so'mni tashkil qilgan bo'lib, shundan 337,7 mlrd. so'mi Payariq tumaniga to'g'ri keladi. 2012 yilga taqqoslaganda viloyatniki 106,5 foizga o'sgan, tumanda esa 106,5 foizga o'sgan (2.1.1-g'jadval).

Tumanda qurilish ishlari ham olib borilgan bo'lib, 2013 yil bo'yicha 81,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan, 2012 yil bilan taqqoslaganda 111,9 foizga o'sgan. Shu bilan birga tumanda savdo aylanmasi va pullik xizmatlarda ham o'sish ko'zatilgan bo'lib, savdo aylanmasi 193,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2012 yil bilan taqqoslaganda 115,1 foizga o'sganligini ko'rish mumkin jadval ma'lumotlaridan.

2.1.2-jadval

Samarqand viloyati va Payariq tumanida 2013 yil bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy islohotlar sur'atining asosiy ko'rsatkichlari

	Sanoat				
	jami, mlrd. so'm	2012 yilga nisbatan foizda	Iste'mol tovarlari		Nodavlat sektorning sanoat mahsulotida gi ulushi, foizda
			jami, mlrd. so'm	2012 yilga nisbatan foizda	
Samarqand vil.	3298,4	113,6	2121,4	114,3	100,0
Payariq t.	78,6	113,2	20,7	102,7	100,0

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

2.1.1-jadval

2013yilda Samarqand viloyati va Payarik tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

	Sanoat mahsuloti		Iste'mol tovarlari		Qishloq xo'jaligi mahsuloti		Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		Qurilish ishlari	
	mlrd.so'm	2012 y. nisbatan foizda	mlrd.so'm	2012 y. nisbatan foizda	mlrd.so'm	2012 y. nisbatan foizda	mlrd.so'm	2012 y. nisbatan foizda	mlrd.so'm	2012 y. nisbatan foizda
Samarqand vil.	3298,4	113,6	2121,4	114,3	3732,3	106,5	1813,2	120,0	1199,6	118,6
Payariq t.	78,6	113,2	20,7	102,7	337,7	106,6	65,1	113,9	81,1	111,9

Davomi

	Savdo aylanmasi		Pullik xizmatlar		Eksport		Import	
	mlrd.so'm	2012 y. nisbatan foizda	mlrd.so'm	2012 y. nisbatan foizda	ming AQSH dollari	2012 y. nisbatan foizda	ming AQSH dollari	2012 y. nisbatan foizda
Samarqand vil.	3929,2	116,6	1744,9	118,3	163668,2	115,3	693481,9	126,3
Payariq t.	193,8	115,1	82,9	119,2	506,0		3163,1	2 m

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Yuqoridagi 2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyati va Payariq tumanida 2013 yil bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy islohotlar sur'atining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, Samarqand viloyat bo'yicha 2013 yilda 3298,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan 113,6 foizga oshgan. Shu jumladan, Payariq tumanida 78,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan 113,2 foizga o'sgan.

Payariq tumanda 2013 yil 1 dekabr holatiga debitor qarzlar 6751,1 mln. so'mni tashkil qilgan, kreditor qarzlar 27373,1 mln. so'mni tashkil qilgan. Tuman bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami 65,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, ulardan chet el investitsiyalari va kreditlari statistik ma'lumotlarda keltirilmagan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tuman bo'yicha 2013 yilda 337,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan 106,6 foizga oshgan.

2.1.3-jadval

2014 yil 1 yanvar holatiga Samarqand viloyati va Payariq tumanida fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumot

	Faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar soni, birlik	Biriktirilgan er maydoni, ga	Bir xo'jalikka to'g'ri keladigan yer, ga	Ishlovchilar soni, kishi	Faoliyatini tugatgan xo'jaliklar soni, birlik
Samarqand vil.	8388	527124,0	62,8	115065	525
Payariq t.	667	59402,0	89,1	9320	77

	2013 yilda ishlab chiqarildi					
	Go'sht, tirik vaznda		Sut		Tuxum	
	tonna	2012 yilga nisbatan foizda	tonna	2012 yilga nisbatan foizda	ming dona	2012 yilga nisbatan foizda
Samarqand vil.	4790,0	114,0	44900,0	117,8	200521,0	108,1
Payariq t.	120,0	180,7	6194,0	118,7	7310,0	115,5

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014 yil 1 yanvar holatiga Samarqand viloyati va Payariq tumanida fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar soni 8388 tani tashkil qilgan bo'lib, birlashtirilgan yer maydoni 527124 g. ajratilgan. Tumanda bir xo'jalikka to'g'ri keladigan yer, fermer xo'jalikda ishlovchilar soni, faoliyatini to'g'atgan xo'jaliklar soni, 2013 yilda ishlab chiqarilgan go'sht, tirik vaznda, sut va tuxum mahsulotlari keltirilgan bo'lib, ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuqoridagilarning barchasi 2012 yilga nisbatan o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

2.1.4-jadval

2013 yilda Samarqand viloyati va Payariq tumanida chakana savdo aylanmasi va aholiga pullik xizmat ko'rsatish

(mlrd.so'm)

	Chakana savdo aylanmasi	shu jumladan			2012 yilga nisbatan foizda
		rasmiy korxonalar	dehqon bozorlari	norasmiy sektor	
Samarqand vil.	3929,2	1615,9	1450,9	862,4	116,6
Payariq t.	193,8	74,7	77,5	41,6	115,1

	Aholiga pullik xizmat ko'rsatish	shu jumladan			2012 yilga nisbatan foizda
		rasmiy korxonalar	norasmiy sektor	norasmiy sektorning ulushi, foizda	
Samarqand vil.	1744,9	883,5	861,4	49,4	118,3
Payariq t.	82,9	34,8	48,1	58,0	119,2

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda Samarqand viloyati va Payariq tumanida chakana savdo aylanmasi va aholiga pullik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, chakana savdo aylanmasi viloyat bo'yicha 3929,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan, shu jumladan, rasmiy korxonalar 1615,9 mlrd. so'mni, dehqon bozorlari 1450,9 mlrd. so'mni, norasmiy sektor 862,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 2012 yilga nisbatan 116,6 foizga oshgan. Tuman bo'yicha chakana savdo aylanmasi 193,8 mlrd. so'mni, shu jumladan, rasmiy korxonalar 74,7 mlrd. so'mni, dehqon bozorlari 77,5 mlrd. so'mni, norasmiy sektorda esa 41,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan 115,1 foizga oshgan. Xuddi shunda aholiga pullik xizmat ko'rsatish sohasida ham o'sishga erishilgan bo'lib, viloyatda 2012 yilga nisbatan 118,3 foizga, tumanda esa 119,2 foizga oshgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda Samarqand viloyati va Payariq tumani bo'yicha xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, viloyat bo'yicha tashqi savdo aylanmasi 857150,1 ming AQSH dollarini tashkil qilgan va o'tgan 2012 yilga nisbatan 124,1 foizga o'sgan. Viloyatda eksport va import sohalarida ham 2012 yilga nisbatan o'sishga erishilganligini ko'rish mumkin. Bunday ko'rsatkichga erishishda davlatning roli nihoyatda katta deb uylayman.

2013 yilda Samarqand viloyati va Payariq tumani bo'yicha xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari

	Tashqi savdo avlanmasi, ming AQSH dollari	2012 yilga nisbatan foizda	Eksport, ming AQSH dollari	2012 yilga nisbatan foizda	Import, ming AQSH dollari	2012 yilga nisbatan foizda	Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar			
							Ro'yxatga olinganlar soni, birlik	shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotganlari, birlik	eksport hajmi, ming AQSH dollari	hisobot davrida tashkil etildi, birlik
Samarqand vil.	857150,1	124,1	163668,2	115,3	693481,9	126,3	244	231	95959,5	29
Payariq t.	3669,1	2,3 m	506,0		3163,1	2 m	1	1		

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

2.2. Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy holati va tahlili

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o'sishga erishishdek dolzarb vazifa qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotda erishgan yutuqlarning asosi – bozor iqtisodiyoti, mulk shakllarining takomillashuvi, iqtisodiyotdagi keskin tuzilmaviy o'zgarishlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortib borishi bilan baholanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "...mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari rivojlanishi bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan muhim masalalardan biridir. Xususan,

mulkchilikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb e'tirof etilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari rivojlanish istiqbolini belgilash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish o'ta muhimdir. Chunki bozor munosabatlarini takomillashtirishda, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, uning natijasida mamlakat byudjeti barqarorligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotni (YAIM) ishlab chiqarish, aholi bandligini ta'minlash kabi dolzarb muammolarni hal qilishga erishilmoqda. Mazkur sohani rivojlantirish uchun ma'lum shart-sharoitlarning yaratilishi, soliq, bojxona va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlarning belgilanishi, bank kreditlaridan samarali foydalanish natijasida qisqa davr ichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining soni tobora oshib bormoqda. Buni Payariq tumani ma'lumotlarida ko'rib chiqamiz.

2.2.1-jadval

Samarqand viloyatida 2012-2013 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni (dehqon va fermer xujaliklarisiz)

(birlik)

	Jami		shu jumladan			
			kichik korxonalar		mikrofirmalar	
	2012 y.	2013 y.	2012 y.	2013 y.	2012 y.	2013 y.
Jami	11117	12648	1500	2037	9617	10611
shu jumladan tarmoqlar:						
Sanoat	2317	2659	162	168	2155	2491
Qurilish	1258	1371	122	106	1136	1265
Qishloq xo'jaligi	1063	1145	109	61	954	1084
Transport va aloqa	331	354	83	81	248	273
boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	1174	1175	34	38	1140	1137
Savdo va umumiy ovqatlanish	4044	4250	823	741	3221	3509
Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turi	155	189	18	11	137	178

Sog'liqni saqlash. jismoniy tarbiya. ijtimoiy ta'minot	435	784	81	398	354	386
Ta'lim, madaniyat, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish	196	587	44	422	152	165
boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	144	134	24	11	120	123

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2012-2013 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) yil sayin ko'payib bormoqda. Viloyat bo'yicha 2012 yilda 11117 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilga kelib 12648 taga yetgan. Shu jumladan, kichik korxonalar 2012 yilda 1500 ta, 2013 yilda esa 2037 tani, mikrofirmalar 2012 yilda 9617 ta, 2013 yilda 10611 tani tashkil qilgan.

2.2.2-jadval

Samarqand viloyati va Payariq tumanida 2012-2013 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni (dehqon va fermer xujaliklarisiz)

(birlik)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar ulushi, foizda		Faoliyatini tugatganlar	
	2012 y.	2013 y.	2012 y.	2013 y.	2012 y.	2013 y.	2012 y.	2013 y.
Samarqand vil.	12962	14218	11117	12648	85,8	89,0	2113	1361
Payariq t.	572	648	483	576	84,4	88,9	63	79

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyati va Payariq tumanida 2012-2013 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni (dehqon va fermer xujaliklarisiz) keltirilgan bo'lib, Samarqand viloyatida 2013 yilda ro'yxatga olinganlar 14218 tani tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilda 12962 tani, farqi esa 1256 taga ko'p bo'lgan. Shundan faoliyat ko'rsatayotganlar 2013 yilda 12648 ta, 2012 yilda 11117 ta, faoliyat

ko'rsatayotganlar ulushi, 2013 yilda 89 foiz, 2012 yilda 85,8 foizni tashkil qilgan. 2013 yilda viloyat bshyicha faoliyat ko'rsatmayotganlar 1361 tani tashkil qilgan. 2012 yilga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlar soni 752 taga kam bo'lgan. Payariq tuman bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ro'yxatga olinganlar 2012 yilda 572 ta, 2013 yilda esa 648 tani tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan farqi 76 taga ko'paygan. Shundan tuman bo'yicha faoliyat yuritayotganlari 2012 yilda 572 tadan 483 ta, 2013 yilda esa 648 tadan, 576 tani tashkil qilgan. Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko'rib turibmizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining yil sayin usib borishida davlat tomonidan qonun yo'li bilan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar natijasida o'sishga erishilib kelinmoqda deb o'ylayman.

2.2.3-jadval

Samarqand viloyati va Payariq tumanida 2012-2013 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy ko'rsatkichlari

(foizda)

	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi								Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi							
	YAHM		Mehnatda band aholining umumiy sonidan		Eksportda		Importda		YAHM		Mehnatda band aholining umumiy sonidan		Eksportda		Importda	
	Yillar															
	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013	2012	2013 .
Samarqand vil.	75,9	77,1	81,8	82,0	67,8	74,4	53,8	52,2	37,6	X	17,7	17,6	66,0	72,9	49,8	48,1
Payariq t.	X	X	78,9	79,1		100,0	100,0	100,0	X	X	25,4	25,2		100,0	100,0	100,0

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

2013 yilda Samarqand viloyati iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi

	Sanoat mahsuloti	Qishloq xo'jaligi mahsuloti	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Qurilish ishlari	Chakana savdo aylanmasi	Aholiga pullik xizmat ko'rsatish	Yuk tashish	Yuk aylanmasi	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
Samarqand viloyati	42,2	98,4	48,3	95,0	52,1	57,1	69,9	94,1	82,7	81,8
shaharlar:										
Samarqand sh.	26,3	95,5	25,7	91,9	62,0	48,9	67,5	95,0	94,5	83,9
Kattaqo'rg'on sh.	31,5	99,4	51,0	77,2	43,2	62,4	69,2	94,3	92,0	82,5
tumanlar:										
Payariq	52,3	99,3	48,0	71,1	61,4	71,9	79,8	90,6	88,5	84,9
Bulung'ur	100,0	99,9	84,4	94,9	46,2	68,2	57,0	92,1	90,1	74,1
Jomboy	18,0	99,3	78,8	100,0	57,9	69,0	66,0	94,2	80,5	89,3
Ishtixon	42,2	100,0	66,8	99,9	46,1	56,6	66,6	96,8	84,3	90,6
Kattaqo'rg'on	31,2	94,6	61,2	100,0	47,0	57,0	74,7	85,8	80,8	84,5
Qo'shrabot	100,0	99,4	74,8	100,0	34,4	74,4	70,3	96,4	68,2	93,6
Payariq	37,1	99,9	76,4	100,0	60,0	62,7	71,3	89,0	91,0	72,6
Pastdarg'om	51,4	99,0	70,5	99,8	40,7	53,9	85,2	96,7	71,9	74,3
Paxtachi	35,2	99,6	61,9	100,0	27,6	67,9	61,8	92,4	70,0	83,9
Samarqand	74,1	90,5	77,6	99,5	49,2	61,2	58,4	97,1	80,9	74,5
Narpay	27,9	99,6	60,5	98,5	40,9	64,8	81,7	95,6	78,1	91,5
Nurobod	100,0	96,2	40,2	90,3	29,3	57,7	79,3	95,5	70,6	88,8
Payarik	100,0	99,8	65,1	100,0	68,3	50,2	78,4	89,4	81,6	78,8
Urgut	89,5	99,9	73,5	99,1	63,8	57,1	76,2	96,6	86,1	74,7

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2013 yil iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi keltirilgan bo'lib, viloyat bo'yicha sanoat mahsuloti 42,2 foiz, qishloq xo'jalik mahsulotlari 98,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 48,3 foizni, qurilish ishlari 95,0 foizni, chakana savdo aylanmasi 52,1 foizni, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 57,1 foizni, yuk tashish 69,9 foizni, yuk aylanmasi 94,1 foizni, yo'lovchi tashish 82,7 foizni, yo'lovchi aylanmasi 81,8 foizni tashkil qilgan. Sanoat mahsuloti barcha tumanlarda usib borgan bo'lib, jumladan, Bulung'ur, Qo'shrobod, Nurobod va Payarik tumanlarida 100 foizni tashkil qilgan. Qishloq xo'jalik mahsulotida ham usishga erishilgan bo'lib, barcha tumanlarda 90 foizdan oshgan bo'lib, ayniqsa Ishtixon tumanida 100 foizni tashkil qilgan. asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi ham statistik ma'lumotlari ham keltirilgan bo'lib, jumladan, Kattaqurg'on sh., Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqurg'on, Qushrobod, Payariq, Pasdarg'om, Paxtachi, Samarqand, Narpay, Payarik va Urgut tumanlarida 50 foizdan ziyod investitsiyalar kiritilgan.

2.3. Payariq tumanida aholini bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning holati va tahlili

Mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, harakatini rivojlantirish, xususiy sektorning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirishga qaratilgan tizimli va tadrijiy chora- tadbirlar izchil olib borilmoqda. Chunonchi, xususiy sektorning erkin va mustaqil rivojlanishini ta'minlaydigan zarur huquqiy asoslari yaratildi va ular faol takomillashtirilib borilmoqda.

Bularning barchasi yurtimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va yangi bosqichga olib chiqishda zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy sharoit shakllangani ifodasidir.

Albatta, erishilgan yutuq va natijalar ko'lamini yanada kenegaytirish. Sohadagi yangi xuquqiy munosabatlarni joriy ettishni davrning o'zi talab qilmoqda. Davlatimiz rahbari Oliy Majlis palatalarining 2011 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qushma majlisida ilgari surgan "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" da ham bo'gungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy- huquqiy shakli oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi, deb alohida qayd etildi. Darhaqiqat, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yurtimizda biznesni tashkil qilishning mazkur shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatning mavud holatiga to'la mos keladi. Bunday biznesning tashkil qilishning qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning xuquqiy kafolatlarini ko'chaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi hamda yangi ish o'rinlarining ochilishiga sharoit to'g'iladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov milliy qishloq xo'jaligimiz taraqqiyotining ko'p ming yillik taraqqiyot yo'li mehnat mentalitetiga asoslanib, oilaviy tadbirkorlik, xususan oilaviy fermerlik harakatini ustuvor rivojlantirish maslasini kun tartibiga qo'ydi. Bu aslo bejiz emas. Zero, Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yingilmas kuch" nomli mashxur asarida rinli ta'kidlaganidek: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'sir beqiyosdir. Chunki insonning ng sof va pokiza to'yg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila barida shakllanadi" Bu ko'p qirrali jarayonda oilaviy mehnat an'analari alohida ahamiyat kasb etadi. Oilaviy mehnat an'analari har bir farzandning mehnat haqidagi dastlaki tasavvurlari, kasbga bo'lgan qiziqish va intilishi, zamonaviy ilimlarni o'rganishga bo'lgan harakatini belgilanishida tarbiya chog'i bo'lib xizmat qiladi. Milatimizda azal-azaldan oilaviy dehqonchilik va chorvachilik mehnat madaniyatining yanada barqaror o'sishi va rivojlanishi uchun barcha zaruriy xuquqiy, siyosiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek:

"bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo‘yish vaqti keldi". Prezidentimiz tomonidan ta’kidlab o‘tilgan bu muhim xulosa mehnatni tashkil etish va boshqarishda tarix sinovlardan juda ko‘p bor o‘tgan va samarali hisoblangan oilaviy mehnat jamoalarini ichida eng ko‘p tarqalgan xo‘jalik yuritish usuli hisoblanadi. Shu ma’noda "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da ko‘rsatib o‘tilgan oilaviy tadbirkorlikning qonunchilik bazasini yaratish to‘g‘risidagi taklif juda katta ahamiyat kasb etadi.¹

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosiy bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishni muhim omillaridan biri bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli xuquqiy kafolatlar yaratildi.

Natijada bugungi kunda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarning ulushi 54,6 foizgacha o‘sdı. Ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholining umumiy sonini 49,7 foizdan 74,5 foizgacha oshdi. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturiga muvofiq 2012 yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes – muhitni yaratish bo‘yicha kompleks chora – tadbirlar qabul qilindi va amalga oshirildi.

Prezidentimiz tabiri bilan aytganda, iqtisodiy o‘sishning bosh omillaridan biri bo‘lgan tadbirkorlikni yanada jonlantirish va bu bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish iqtisodiyotni rivojlantiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faollik daraja ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Ma’lum bo‘ldiki Samarqand viloyati va uning tumanlaridan faollik darajasi yildan yilga

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yingilmas kuch T.: "Manaviyat" 2008.

kuchaytirilib borilishi natijasida ijobiy holatga erishilmoqda. Umuman doimiy harakatdagi korxonalar soni kamayib borishi yaxshi, holat emas. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faollik darajasini oshirib borish ko'rsatkichlarini har tomonlama tahlil o'tkazish ularning faoliyat samarasini oshirib boradi.

2.3.1-jadval

Payariq tumanida 2011-2013 yillarda jami iqtisodiyotda band aholi soni

t/r	Ko'rsatkichlar		Yillar		
			2011	2012	2013
1.	Tuman bo'yicha jami	<i>ming kishi</i>	57,1	60,9	62,3
	shu jumladan				
1.	Kishloq xo'jaligida	<i>ming kishi</i>	15,5	17,9	18,4
2.	Sanoatda	<i>ming kishi</i>	6,5	6,7	6,0
3.	Qurilishda	<i>ming kishi</i>	3,8	4,0	4,2
4.	Transportda	<i>ming kishi</i>	2,9	3,0	3,1
5.	Aloqada	<i>ming kishi</i>	1,0	1,3	1,4
6.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida	<i>ming kishi</i>	6,7	6,7	6,8
7.	Uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat	<i>ming kishi</i>	2,3	2,4	2,5
8.	Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot	<i>ming kishi</i>	4,1	4,1	5,5
9.	Xalq ta'limida	<i>ming kishi</i>	6,2	6,2	9,7
10.	Madaniyat va sa'nat	<i>ming kishi</i>			
11.	Sug'urta, moliya, va nafaqa jami	<i>ming kishi</i>	0,2	0,2	0,3
12.	Boshqaruv organlarida	<i>ming kishi</i>	0,6	0,6	1,1
13.	Boshqa soha va tarmoqlarda	<i>ming kishi</i>	7,3	7,8	3,3

Manba: Payariq tumani statistika bo'limi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Payariq tumanida 2011-2013 yillarda jami iqtisodiyotda band aholi soni keltirilgan bo'lib, tuman

bo'yicha 2011 yilda 57,1 ming kishi, 2012 yilda 60,9 ming kishi, 2013 yilda esa 62,3 ming kishi band bo'lib kelmoqda. Shu jumladan, qishloq xo'jaligida, 2011 yilda 15,5 ming kishi, 2012 yilda 17,9 ming kishi, 2013 yilda esa 18,4 ming kishi. Sanoatda 2011 yilda 6,5 ming kishi, 2012 yilda 6,7 ming kishi, 2013 yilda kelib 6 ming kishiga tushgan. Qurilish sohasida 2011 yilda 3,8 ming kishi, 2012 yilda 4 ming kishi, 2013 yilda esa 4,2 ming kishini tashkil qilgan. Transportda 2011 yilda 2,9 ming kishini, 2012 yilda 3 ming kishini, 2013 yilda esa 3,1 ming kishini tashkil etgan. Aloqa sohasida 2011 yilda 1 ming kishini, 2012 yilda 1,3 ming kishini, 2013 yilda 1,4 ming kishini tashkil etgan. Xudi shunday savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy ta'minot, tayorlov korxonalarida ham 2011 yilda 6,7 ming kishini, 2012 yilda ham 6,7 ming kishini, 2013 yilda esa 6,8 ming kishini tashkil qilgan. Uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat 2011 yilda 2,3 ming kishini, 2012 yilda 2,4 ming kishini, 2013 yilda 2,5 ming kishini tashkil etgan.

Mehnat resurslarining ortiqchaligi yangi imkoniyatlar berish bilan birga ijtimoiy muammolar keltirib chiqaradi, ularning arzonligi esa mehnat bozorida raqobatni susaytiradi va ish beruvchilar ko'proq qul mehnatidan foydalanishga urinadi. Natijada kichik korxonalarda fan texnika yutuqlaridan foydalanishga kechiktiradi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tuman iqtisodiyotining strategik rivojlanishini belgilashda kichik tadbirkorlikka xos bo'lgan yangi ish o'rinlarini yaratishga e'tibor berish kerak. Bizning fikrimizcha ushbu vazifalarni bajarish jarayonida quyidagi muammolarni hal etish lozim:

- aholi bandligini ta'minlash, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash hamda rivojlantirish xududiy dasturlarida belgilangan asosiy parametrlarini bajarilmayotganligi;
- xududlarda faoliyat yuritmayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining ulush yuqoriligi;
- mahalliy xokimiyot organlarining kichik biznes vakillari bilan o'zaro hamkorlikdagi aloqalari yetarli darajada yo'lga quyilmaganligi;

- tadbirkorlik sub'ektlarini ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishlari uchun bino, yer ajratish, gaz va elektroenergiya ta'minotidagi uzilishlar (kommunikatsiyalar) va hokazolar;
- joylarda tadbirkorlikka ko'maklashuvchi bozor infratuzilmalari;
- tashkilotlarining yetishmasligi yoki yuqori saviyada xizmat ko'rsatmayotganligi.


III – Bob. Payarik tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanish istiqbollari va xavfsizligini ta'minlash masalalari

3.1. Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyot va jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etmokda. 2013 yil natijalariga ko'ra kichik biznes va xususiy tadbirkorlik YAIMning 55,8% ini tashkil etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va uning tarkibidagi ulushlari ham yildan yilga o'sib bormoqda (1 chizmaga qarang).²

Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qator ijobiy tomonlar namoyon bo'ladi: iqtisodiyotni sog'lomlashtirishda qulay sharoit yaratiladi; raqobatbardoshlik muhiti shakllanadi; qo'shimcha ish o'rinlari ochiladi; iste'molchilar sektori kengayadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi jarayonida bozor tovar va xizmatlar bilan to'yinadi, eksport salohiyati hamda mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish mas'uliyati oshadi.



1 chizma. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiyot va uning tarkibidagi ulushlari

²O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. <http://www.stat.uz>

Payarik tumanida kichik biznes va xususiy tadyuirkorlik sub'ektlari soni va bu sohada band bo'lgan aholi ulushi tobora oshib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga ko'maklashadigan asosiy omil – soglom tadbirkorlik muhitini barcha tadbirkorlar faoliyati uchun (teng imkoniyatlar, tushunarli qoidalarni) yaratish hisoblanadi. Ushbu jarayonlarga ko'maklashish maqsadida Xalqaro moliyaviy korporatsiya tomonidan O'zbekiston tadbirkorlarining respublikadagi tadbirkorlik muhiti bo'yicha fikrlarini tahlil qilish va umumlashtirish va davlat islohotlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqot natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishiga ta'sir qiladigan turli xil tusiqlar to'krisidagi fikrlarini aks ettiradi. Aytib o'tish lozimki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining geografik joylashishiga bogliq ravishda ish yuritishdagi katta farqlarni namoyon etdi. Bu tadbirkorlik muhitining mahaliy hukumat organlari faoliyatiga uzviy bokliqligini ko'rsatib beradi. Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mahaliy hukumat organlari faoliyatiga munosabati o'tgan yillarga nisbatan yaxshilandi.

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlanishida aniqlangan muhim muammolardan biri – tadbirkorlar huquqiy bilimi darajasining pastligi hisoblanadi. 2012 yilda o'tkazilgan tadqiqot natijasi bo'yicha 75 % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatlarini tartibga soladigan qonunlar bo'yicha uzil-kesil ma'lumotga ega bo'lgan. 2013 yilda ushbu ko'rsatkich 81 % ga yetdi. Tadbirkorlar o'z huquqlarini qanchalik bilishlari to'grisidagi savolga javoblarni tahlil qilish natijalari ham xuddi shunday tendensiyada o'zgardi.

Korxonalar o'lchamlari bo'yicha ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, kichik korxonalar va mikrofirmalarda qonun va huquqlarni bilish darajasi ancha yomon. Buni yirik korxonalar doimiy konsultatsion yordam uchun malakali yurist xizmatidan foydalanish imkoniyati borligi bilan asoslash mumkin. 2013 yilda

so'rovda qatnashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining atigi 14 foizi malakali yuristlar xizmatidan foydalanganlar.

O'tgan yilga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining qonundagi so'nggi o'zgarishlar to'grisidagi ma'lumotlar manbalari unchalik o'zgarmagan. Keng tarqalgan ma'lumot manbalari do'stlar va hamkorlar bo'lib qolmoqda. Ushbu manbalardan ko'pincha hujjatning faqatgina umumiy mohiyatini bilish mumkin.

Xususiy bilim darajasining pastligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Qonunni bilmaslik tadbirkorlarga boshqa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va nazorat organlari bilan aloqalar o'rnatish imkoniyatini cheklaydi. Ushbu dalillardan kelib chiqqan holda aytish lozimki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari huquqiy bilimini oshirishga yo'naltirilgan davlat ko'magi haligacha zarurdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari nafaqat mahalliy hokimiyat organlarida ro'yxatdan o'tishi, balki mustaqil ravishda soliq inspeksiyasida, statistika organlarida, bandlik va ijtimoiy himoya organlarida va boshqa davlat tuzilmalarida hisobga qo'yilishlari lozim edi. Ushbu davlat organlaridan har biri o'z tartibini qo'llagan edi, bu korxona tomonidan faoliyat boshida sarflanadigan vaqtni ancha ko'paytirar edi. Yuqoridagi qarorning qabul qilinishi bu jarayonni ancha soddalashtirdi. Ro'yxatdan o'tish uchun zarur bo'ladigan muayyan muddat va hujjatlar soni belgilandi.

Yangi tizimga muvofiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hujjatlarni faqat bitta ro'yxatga olish organiga topshiradi. Ro'yxatga olishning qolgan barcha jarayonlarini, ya'ni soliq va statistika organlarida, yo'l fondi, shuningdek mahalliy mehnat, bandlik va ijtimoiy himoya bo'limlarida hisobga qo'yish va boshqa jarayonlarni, tadbirkor nomidan faoliyat yuritadigan ro'yxatga olish organi bajaradi. Barcha ishlar bajarilgandan so'ng ro'yxatga oluvchi organ davlat sanitariya-epidimiologiya nazorati organlari, davlat yonkin xavfsizligi xizmatlari va tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasini yangi tuzilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ekti to'krisida xabardor etadi.

Ro'yxatga olingandan so'ng va o'z faoliyatini boshlashdan oldin ma'lum faoliyat turi bilan shukullanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari majburiy ravishda foydalaniladigan bino (ob'ekt) joyida mahalliy xokimiyat organlariga mos ruxsatnomalar olish uchun murojat qilishlari zarur. Bu jarayon 2011 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun muammoli jarayonlardan biri bo'lib hisoblanadi.

2011 yil avgust oyida hukumat tamonidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatga olish jarayonlarining yangi tartibi joriy qilindi. Yangi tartibga muvofiq, viloyat va tuman xokimliklari qoshidagi ro'yxatga olish bulimlari urniga 2011 yil 1 oktyabrgacha Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish buyicha inspeksiyalarni tashkil etish ko'zda tutildi. Bu inspeksiyalarni vazifalari, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan utkazish va mos organlarga hisobga qo'yishdan tashqari, vakolatli organlarda va ekspulatatsiya tashkilotlarida ruxsatnoma hujjatlarini, shu jumladan ob'ektlarni qurish va qayta tamirlash uchun zarur buladigan injenerlik kommunikatsiyaga ulanishning texnik shartlarini rasmiylashtirish hisoblanadi. Yangi tuzilayotgan korxonalar uchun bu ruxsatnomalarni olish korxonani ro'yxatga olish jarayoni bilan birgalikda olib boriladi.

Bizning fikrimizcha, qonunda ro'yxatga olish muddati va bunda talab qilinadigan hujjatlar soni qa'tiy cheklanganligi sababli ushbu muammolarning vujudga kelishini yoki tadbirkorlar xuquqiy bilimining pastligi yoki joylarda ro'yxatga olish organlari tomonidan qonun hujjatlarining bajarilmasligi bilan bokliq. Bunga qaramasdan, tadbirkorlar fikricha 2012-2013 yillarda ro'yxatga olishdagi umumiy axvol yaxshilandi.

Kupchilik tadbirkorlarning fikricha hozirgi kunda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga tusqinlik qiladigan asosiy omillardan biri amaldagi soliq solish tizimi hisoblanadi. Tadbirkorlar soliqlarning zarurligini tushunsalar ham, ular soliq solish jarayonini murakkablashtiradigan ko'pchilik kamchiliklarning mavjudligini belgilaydilar.

Bozor iqtisodiy kategoria sifatida tovar mahsulotlari ishlab chikaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar hamda iste'mol qiluvchilar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, ular o'rtasida mahsulotlar ayriboshlash, shuningdek, talab va taklif asosida ularni bir biri bilan uzviy boklash uchun xizmat qiladi. O'zbekistonda mulkchilikning turli shakllari qaror topishi va xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga o'tkazilishiga nisbatan iqtisodiyotning yangi mexanizmi hisoblansada, lekin u bir necha ming yillardan buyon mavjuddir.

Bozor iqtisodiyotida tovar ishlab chikaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar erkin va mustakil faoliyat ko'rsatadilar. Ularning mustaqil faoliyat ko'rsatishini harkterlovchi xususiyatlardan biri, mulk egasi bo'lishidir. Bozor xo'jaligi uchun turli xil mulk shakllari xos bo'lib, ulardan eng ustivori ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishning xususiy mulkchilik shakli hisoblanadi. Davlatga qarashli bo'lgan mulkni xususiylashtirish va uni jamoa fuqorolari mulkiga aylantirish ko'pgina muammolarni xal etish bilan bokliq bo'lgan jarayondir.

Mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyotimiz tarkibida tashkil etilayotgan mulkdorlar sinifi, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikka alohida e'tibor berilib, ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Kichik va xususiy tadbirkorlikni kafolatlari va davlat tomonidan qo'llab quvvatlash yo'nalishlarini quyidagi keltiramiz.

I. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlari huquqlari va manfaatlarining quyidagi kafolatlari mavjud.

Davlat kichik va xususiy qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi, erkin raqobat uchun shart-sharoit yaratdi, moliyaviy, mehnatga oid va boshqa resurslardan foydalanishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirishda o'z tashabbusi bilan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan har qanday qaror qabul qilishi mumkin.

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining xizmat yoki tijorat siri bo'lgan axborotlarning himoya qilinishi kafolatlanadi.

Davlat organlari va boshqa organlarning, ulardagi mansabdor shaxslar va xodimlarning, qonun hujjatlarida tutilgan hollarni istisno etganda, kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvi man etiladi.

II. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan rakbatlantirishning asosiy yo'nalishlariga:

2.1. Kichik va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish, rivojlantirish jarayonlarini tartibga solish va rakbatlantirish davlat tomonidan normativ-huquqiy asosini takomillashtirish, infrastrukturani shakllantirish hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun shart-sharoit yaratish asosida iqtisodiy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida:

2.2.1. kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun mahalliy soliqlar va yikimlar bo'yicha imtiyozlar belgilaydilar;

2.2.2. kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqadilar;

2.2.3. kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydilar.

III. Kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash fondlari tashkil qilingan va ularga quyidagilar kiradi:

- kreditlar, shu jumladan imtiyozli kreditlar berish asosida investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlash;
- ustav sarmoyasida ishtirok etish;
- maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatish shaklida texnik jihatdan ko'maklashish;
- infrastrukturani rivojlantirishga ko'maklashishi;
- olinayotgan kreditlar uchun kafolatlar, majburiyatlar va kafilliklar berish yo'li hamda qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllari bilan kichik va xususiy tadbirkorlikning sub'ektlarini rivojlantirishni rakbatlantirish uchun hosil qiladi.

IV. Axborot sohasida qo'llab-quvvatlash

Davlat boshqaruv organlari kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini iqtisodiy, huquqiy, statistika, ishlab chiqarish texnologiyaga oid va samarali faoliyat yuritish uchun kerakli boshqa axborotlar bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqaradilar va amalga oshiradilar.

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga axborot xizmati ko'rsatish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozli shartlarida amalga oshiriladi.

V Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ishlab chiqarish-texnologiya jihatdan qo'llab-quvvatlash

Davlat boshqaruv organlari kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari zamonaviy uskuna va texnologiyalar olishiga, texnoparklar, lizing korxonalari, biznes-inkubator, ishlab chiqarish-texnologiya markazlari va infrastrukturaning boshqa ob'ektlari tarmokini barpo etishga yordam berish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydilar, ixtisoslashgan ulgurji bozorlar, yarmarkalar barpo etish va tashkil etishda yordamlashadilar.

VI Qishloqdagi kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga energiya ta'minoti manbaini ishlatishda beriladigan imtiyozlar

Energiya ta'minoti foydalanishda qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan imtiyozli tariflar qishloqdagi kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ham taaluqlidir.

VII Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini imtiyozli kreditlash

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, qarz oluvchining qarzni to'lashga qodirligini va tavakkal darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini imtiyozli kreditlashni maxsus fondlar ixtisoslashtirilgan agentliklarning sukurta polisi asosida amalga oshiradilar.

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini sukurta qilishni amalga oshirayotgan sukurta tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlardan foydalanadilar.

Kichik va xususiy biznesni rivojlantirishning huquqiy asoslari bo‘lmoki lozim. Huquqiy asoslar O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to‘krisida»gi va «Xususiy korxonalar to‘krisida»gi Qonunlarida o‘z ifodasini topgan. Ilgari kichik va xususiy biznes korxonalaridan mikroredit, imtiyozli va uzoq muddatli kreditlar olish ko‘plab hujjatlar talab qilingan va bir qator to‘siqlarga to‘kri kelgan bo‘lsalar, hozir esa yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlarni shakllantirish uchun ariza, biznes reja va bankda hisob raqami bo‘lishi kifoya xolos. Qonunning amaliy ahamiyati yana shundan iboratki, tadbirkorlik faoliyati yuritish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, faoliyat yurituvchi sub’ektlarga shart-sharoitlar yaratilib beriladi va ular moddiy tomondan ragbatlantirib boriladi, haq-huquqlari himoya qilinadi, korxonalar ishini yo‘lga qo‘yish ish bajarish, xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, tovar mahsulotlarini yetishtirishlarini huquqiy jihatdan qo‘llab quvvatlaydi. Xo‘jalik faoliyatlarini yuritishda zarur bo‘lgan moddiy texnika ta‘minotini amalga oshiradi, moliyaviy resurslarga ega bo‘lishi uchun sarmoyalar va pul mablaklari bilan ta‘minlaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini yanada kullab-kuvatlash va ragbatlantirish maksadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ -1112-sonli qarori kabul kilindi.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda iqtisodiyotning g‘oyat muhim sohasi bo‘lmish kichik biznesni rivojlantirishni rag‘batlantirishga, xususiy tadbirkorlik huquqlarining kafolatlari va himoyasining kuchli tizimini yaratishga juda katta e‘tibor berib kelinmoqda.

Buning boisi shuki, ijtimoiy yo‘naltirilgan zamonaviy bozor iqtisodiyotida kichik biznes nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. Eng avvalo, kichik biznes bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga tez moslasha olishga, iste‘molchilarning talab-ehtiyojlari qanday ish tuta bilishga qodirdir. Kichik biznes raqobatchilik muxitisiz bozor iqtisodiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ikkinchidan, kichik biznes yangi ish o‘rinlari jadallik bilan barpo etilishini, aholining bandligi o‘sisini va uning

daromadlari oshib borishini ta'minlaydi. Uchinchidan, kichik biznes ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbai hisoblanadi.

Respublikamizda kichik biznesning roli va ahamiyatini inobatga olgan holda, uni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha aniq-ravshan chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirib borilmoqda. Keyingi yillarda tadbirkorlik sub'ektlarini «bir darcha» orqali tezlik bilan davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi hamda bir necha turdagi soliqlarni to'lash o'rniga kichik biznesni yagona soliq to'lovi shaklidagi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi joriy etildi. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 2008 yilda 10 foizdan 8 foizgacha, 2009 yildan boshlab esa 7 foizgacha, 2013 yilga kelib 5 foizgacha pasaytirildi. Yangidan tashkil etilgayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlash tizimi yaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan bank – «Mikrokreditbank» tashkil etildi. Kichik biznes sub'ektlarining aylanma mablag'larini to'ldirishga kredit berishning maksimal muddati 12 oydan 18 oygacha oshirildi. Tadbirkorlar huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash borasidagi huqukiy normalar mustahkamlandi, tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik faoliyatiga nazorat qiluvchi idoralarning aralashuvni keskin qisqartirish choralari ko'rildi.

Qabul qilingan kafolatlar, imtiyoz va preferensiyalar kichik biznesning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratdi, buning natijasida uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yildagi 33,8 foizdan hozirgi vaqtdagi 48,2 foizgacha ko'paydi. 2013 yilda jami band aholining 75 foizdan ko'prog'i mazkur sohada mehnat qilmoqda. O'tgan yilning o'zidagina kichik biznes sohasida 374 mingdan ko'proq yangi ish joylari yaratildi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni kichik biznes, xususiy tadbirkorlik jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishdan eng samarali vosita, aholi bandligini ta'minlash, uning daromadlari oshib borishining g'oyat muhim omili hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yanada rivojlanishini ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida uning rolini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1112 – sonli qarori qabul qilindi. Qarorda tadbirkorlik sub'ektlari uchun bir qator muhim qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar joriy etilishi nazarda tutiladi.

Kasanachilikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish aholi bandligini ta'minlashning muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur muhim masalani hal etishda kichik biznes ishtirokini kengaytirish maqsadida, qabul qilingan qaror kichik korxonalarga o'z uylarida ishlayotgan kasanachilar bilan, qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan normatividan ko'pi bilan 30 foiz oshgan miqdorda mehnat shartnomalari tuzish huquqi berilmoqda. Ayni vaqtda kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar saqlanib qolmoqda.

Qarorda Respublika Bosh prokuraturasi, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga joylardagi davlat qo'mitasiga joylardagi davlat boshqaruvi organlari, nazorat qiluvchi va litsenziya beruvchi organlar tomonidan tadbirkorlik, ayniqsa, kichik biznes sub'ektlarining qonuniy huquqlariga rioya etilishi, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq ruxsatnomalarni olishda, Ushbu masalalarni hal qilishda byurokratik to'siqlarni vujudga keltirmaslik va sansalorliklarga yo'l qo'ymaslik ustidan qattiq nazoratni ta'minlash topshirildi.

O'zbekiston Respublika Prezidentining qabul qilingan qarorlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, shubhasiz, kichik biznesni jadal rivojlantirish, xususiy tadbirkorlik faoliyatini muvafaqqiyatli tashkil etish va yuritish, ularning mamlakat iqtisodiyotidagi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning g'oyat muhim, ustuvor vazifalarini hal etishdagi rolini oshirish uchun yana ham ko'proq qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Xullasa kilib aytganda, iqtisodiyotni moderinizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xo‘jalik yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini tashkil etish va uni rivojlantirish, sub’ektlarga iqtisodiy va huquqiy bilimlar berish ta’minlanib borilsa, mavjud resurslardan oqilona tejab foydalanilsa kichik korxonalar faoliyati samarali bo‘ladi va ular iqtisodiyotning tayanch omiliga aylanadi.

3.2. Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarida mehnat va yong‘in xavfsizligini ta’minlash masalalari

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan keng qamrovli tadbirlar majmuasida aholi va hududlarni turli vaziyatlardan muhofaza qilish, inson xavfsizligi va salomatligini saqlash alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham bu masalalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat mustaqillligining dastlabki kunlaridanoq fuqoralar hayot sharoitini yaxshilash, ularni turli ta’sirlardan saqlash va har qanday holatlarda muhofaza etish maqsad qilib olingan.

Hayot faolyati xavfizligi tushunchasi o‘z ichiga insonning yashashida va faoliyat olib borishida muhitning xavfsiz bo‘lishini, tabiiy va texnogen xususiyatli vaziyatlardan saqlanishini, urush va terrorizm xurujidan himoyalanishini, tabiat va odamzod uyg‘unligining saqlanishini ta’minlash tushiniladi. Umuman olganda hayot faolyati xavfizligi — bu insonning shu zamindagi turmushi xavfsizligini ta’minlashdir.

Ma’lumki, O‘zbekiston tabiiy ofatlar (yer silkinishi, yer siljishi, sel, suv toshqini va hokazolar) tez-tez bo‘lishiga moyil o‘lka bo‘lganligi hamda ekologik muvozanatning buzilishi fuqarolar hayotini muhofaza etish, tabiatni asrash va turli ofatlardan zarar ko‘rgan hududlarda qutqarish-tiklash ishlarini olib borish juda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yurtimiz mintaqasi uchun xos bo‘lgan tabiiy ofatlarni, ishlab chiqarish avriyalarini va yuzaga keladigan ekologik vaziyatlarni fuqaro hayot faoliyatidagi

mehnat xavfsizligini chuqur tahlil etish va tegishli choralar ko‘rish zarur. Faqat shundagina har qanday vaziyatlardagi moddiy-ma‘naviy yo‘qotishlar ko‘lamini qisqartirishga erishish mumkin.

Mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog‘ligi va xavfsizligini ta‘minlash uchun yo‘naltirilgan qonunlar majmuini, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gegiyenik, profilaktik tadbilarni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zbekistonda mehnat xavfsizligini ta‘minlash masalalariga oid huquqiy asoslar yaratilgan. Ular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi” (21 dekabr 1995 yil) va O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mehnat Kodeksi”ning 212-moddasida: “Mehnatni muhofaza qilish talablari ushbu Kodeks, mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, shuningdek texnik standartlar bilan belgilanadi”³, deyilgan.

Korxonalarda har bir xodimning O‘zbekiston Respublikasi “Mehnat Kodeksi” va O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunga amal qilishi, ishlab chiqarish xavfsizligi masalalarini ish faoliyatida to‘g‘ri hal etishi, uning shu sohadagi bilim va malakasiga bog‘liq.

Xodimlar salomatligini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va texnika xavfsizligini ta‘minlashga doir omillarni izlab topish, mehnatni samarali ijodiy faoliyatga aylantirish jamiyatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

So‘ngi vaqtlarda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va tibbiyot sohasiga kadrlar tayyorlash bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash, atrof muhitni muhofaza qilish borasida majmuaviy dasturlar amalga oshirilmoqda, yuqumli , umumiy xastaliklar hamda kasb kasalliklarni tashxizlash, davolash va profilaktika qilishning eng yangi usullari ishlab chiqarishga va hayotga tadbiiq etilmoqda.

³ O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat Kodeksi”. – T.: Adolat, 1996, 98 bet.

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning bosh maqsadi inson manfaatlariga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofazasi «Mehnatni muhofaza qilish» qonuniga binoan (5-modda) mehnat muhofazasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan nazorat qilinadi.

Bu ishlar bilan davlat tuzilmasidagi barcha bo'limlar shug'ullanishadi va boshqarib borishadi.

Korxonalarda mehnat qonunlarining buzilmasligi holati tarmoq nazoratini tegishli vazirliklarga bo'ysunish tartibi bilan amalga oshiradi.

Mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish majburiyligi ham qonunda batafsil ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra korxonalar xodimlarning texnika xavfsizligini ta'minlashlari, shu maqsadda tegishli adabiyotlar, plakatlar bilan ta'minlashlari, xodimlar o'rtasida instruktajlar o'tkazib turishlari, shuningdek, zaruriy hollarda xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazli sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlashi lozimligi keltirilgan.

Korxonadagi har bir ish joyidagi mehnat sharoiti mehnatini muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ustidan nazorat o'rnatilishini tashkil etish va nazoratning natijalari to'g'risida mehnat jamoalarini o'z vaqtida xabardor qilish ma'muriyat zimmasiga yuklangan.

Mehnat sharoiti zararli va xavfli ishlab chiqarishlarda, shuningdek, o'ta noxush haroratli yoki ifloslanishlar bilan bog'liq sharoitlarda bajariladigan ishlarda mehnat qiluvchilarga davlat boshqaruvi idoralari belgilagan me'yorlarda maxsus kiyim, poyabzal va boshqa maxsus himoya vositalari, yuvish va dizenfeksiyalash vositalari, sut yoki unga tenglashadigan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, parhez ovqat bepul beriladi.

Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash yuzasidan ma'muriyat bilan xodimlarning o'zaro majburiyatlari jamoa shartnomasida ko'zda tutilgan.

Kasaba uyushmalarning ishlab chikarishdagi qo'mitalari huzuridagi mehnat muhofazasi bo'yicha komissiya tashkil qilinadi. Komissiya mehnat qonunchiligiga, xavfsizlik texnikasiga va ishlab chikarish sanitariyasiga doir qoida va normallarga rioya kilishni tekshiradi va mehnat muhofazasiga oid bo'lgan ko'riklarda ishtirok etadi.

Bu komissiya ishchilarga instruktaj berish va xavfsiz ishlash usullarini o'rgatish sifatini, xatolar va asboblarning tuzukligini, mehnat muhofazasiga ajratilgan mablag'larni sarflanishini, baxtsiz xodisalarni to'g'ri hisobga orlinishini nazorat kiladi, ishlab chikarish travmatizli va kasbiy kasalliklar sabablarini urganadi va ma'muriyatga takliflar kiritadi, ishchilarning maxsus korjoma, maxsus oyok kiyimi individual ximoya vositalari sut, sovun, sifatli ichimlik suv bilan vaktida ta'minlanishini nazorat kiladi. Komissiya istagan vaqtida ish o'rinlarini tekshirishi mumkin.

Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida mehnat muhofazasi bo'yicha jamoat inspektori bir yil muddatga saylanadi. U mehnat qonunchiligiga rioya qilinishini, instruktajning uz vaktida utkazilishini nazorat kiladi, stanoklar asbob-uskunalar, ximoyalovchi kurilmalar buzukligini aniklash, chikindilarni uz vaktida yigishtirib olinishi, utish joylari va ish urinlarida tartibga rioya qilinishini nazorat kilib turishi zarur, shuningdek ishchilar maxsus korjoma, ximoyalovchi vositalar, sovun bilan ta'minlanishini tekshirib turishi zarur.

Korxonalarda kasaba uyushma koshida mehnat texnikaviy inspektori tayinlanadi. U mehnat qonunchiligi bo'yicha ishlarni kasaba uyushmaiga qarashli korxonalarda nazorat qiladi. Bundan tashkari qurilgan korxona va xonalar uning ijozati bilan foydalanishga topshiriladi. Hamda davlat nazorati inspeksiyalari bilan alokada buladi.

"Yul harakati qoidalari" ga rioya kilishni Davlat avtoinspeksiyasi nazorat kiladi.

Elektr kurilmalar, elektr tarmoklar, bug kozonlari, elektr stansiyalari, kishlok xujaligi korxonalaridagi kutarish-tushirish texnikalari ishlashi va ularga xavfsiz xizmat kursatish qoidalari rioya kilishni Davlat energiya nazorati inspeksiyasi nazorat kiladi.

Davlat sanitariya nazorati Respublika soglikni saklash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Insoniyatning hayoti va ish jarayonida sodir bo'lish ehtimoli ko'p bo'lgan va katta talofat keltiradigan baxtsiz hodisalardan biri yong'in hisoblanadi. Shuning uchun korxonalarda yong'in xavfsizligi choralarini ko'rish, yong'in sodir etgan hollarda uni o'chirishga moslashgan asboblarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Korxonalarda, tashkilotlarda xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari va kodeksida yozib qo'yilgan.

Korxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar salomatligini, ular hayoti xavfsizligini ta'minlash korxona rahbariyatining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Hayot faoliyati xavfsizligining barcha sohalari bo'yicha bajariladigan tadbirlar davlat byudjeti, korxona, tashkilot, homiylar va boshqalar tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

Respublikamizda milliy iqtisodiyot tarmoqlari ob'ektlari va aholi turar joylarining yong'in muhofazasini mustahkamlash uchun yong'inga qarshi kurash reja asosida olib boriladi va shu to'g'risida doim g'axo'rlik qilib kelinadi.

Ana shu yong'in muhofazasi ishining ikki asosiy yo'nalishi bor:

- yong'inning oldini olishga qaratilgan ilmiy-texnik va tashkiliy tadbirlarning rejali majmui;
- shahar va qishloqlardagi aholi zich joylashgan joylarda yong'inni o'chirish ishini tashkil qilish.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vzirligining Yong'inga qarshi kurash boshqarmasining vazifasi — davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalari mulkini hamda fuqarolarning shaxsiy mulkini yong'in va portlashga olib keladigan

sabablarni yo‘qotishga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdan iboratdir.

Har qanday korxonada ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan xom ashyosi, chiqaradigan mahsuloti va joylashgan binosining konstruksiyasi hisobga olingan holda yong‘in chiqishga, portlashga va yong‘in chiqqan taqdirda uning tarqalishiga, shuningdek yong‘inning asoratiga asoslangan holda yong‘inga va portlashga xavflilik darajasi belgilanadi.

Albatta, har bir korxonada yong‘in xavfi birinchi navbatda, u yerda ishlatilayotgan xom ashyoning va chiqarilayotgan mahsulotning yong‘inga xavflilik darajasi bilan o‘lchanadi. Shuning uchun ham korxonalarni kategoriyalarga ajratganda ishlatilayotgan moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari hisobga olinadi.

Payariq tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarida yong‘inga qarshi kurash ishlarini shu korxonalarning yong‘inga xavflilik darajasiga qarab, korxona ma’muriyati belgilaydi. Agar korxonada yong‘in xavfli bo‘lsa, unda yong‘inga qarshi kurash bo‘limi tashkil qilinadi. Bunday bo‘lim o‘zining maxsus yong‘inga qarshi kurash komandalarini tashkil qiladi.

Qabul qilingan texnologik loyihalashning amaldagi me‘yorlariga binoan barcha ishlab chiqarish korxonalari texnologik jarayonlarning portlash va yong‘in xavfi bo‘yicha besh toifaga bo‘linadi (A, B, V, G va D).

«A» hamda «B» toifalar portlash va yong‘in xavfi mavjud korxonalardir.

«V» toifasiga faqat yong‘in xavfi mavjud korxonalar kiradi. Ular «A» va «B» toifalarida uchramaydigan yonuvchi suyuqlik, chang va tolalar, qattiq yonuvchi modda hamda materiallar mavjudligi bilan harakterlanadi.

«G» toifaga yonmaydigan moddalar va materiallarni issiq, cho‘g‘langan yoki erigan holda ishlaydigan, ish jarayonida nursimon issiqlik ajraladigan uchqun, alanga chiqib turadigan, shuningdek, qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg‘i yoqiladigan sexlar kiradi. «D» toifaga yonmaydigan moddalar va materiallar sovuq holatida ishlatiladigan sexlar kiradi.

Yongin sanoat korxonalari, xalq xo'jaligining barcha tarmokdarida yuz berib, yetkazadigan zarari jihatidan tabiiy ofatlarga tenglashishi mumkin bo'lgan hodisa hisoblanadi. Ular katta moddiy zarar keltirishi bilan birga og'ir baxtsiz hodisalarga — zaharlanish, kuyish hamda kishilar halokatiga sabab bo'lishi mumkin.

Yong'inga qarshi kurash ishlari davlat miqyosida amalga oshiriladi. Yong'in xavfsizligini ta'minlash, uning rivojlanib, tarqalib ketmasligi chora-tadbirlarini oldindan ko'rish, unga qarshi samarali kurash olib borish yonginni o'chirishda qo'llaniladigan birlamchi vositalardan to'g'ri foydalanishga qaratilgan.

Yong'in xavfsizligi qoida-talablarining buzilishi, texnologik jarayonning rejimga to'g'ri kelmasligi, elektrotexnik asbob-uskunalarining nosozligi, ulardan foydalanish qoidasining buzilishi sanoat korxonalarida yong'in, portlash bo'lishiga olib keladi.

Yong'in sodir bo'lishi asosan texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishi, korxona va sex ma'muriyati tomonidan kamchiliklarga yo'l qo'yilishi bilan bog'liq. Ishlab chiqarish korxonalarida mavjud bo'lgan sabablar, beriladigan yoki qo'yiladigan komponentlar tarkibi va tezligining o'zgarishi, aralashtirilmassligi, uskunaga begona modda tushib qolishi, xom-ashyo tarkibining o'zgarishi, gaz, bug'larni yo'qotish usulining buzilishi va boshqa holatlar avariya, portlashga olib keladi.

Texnologik jarayonlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashda quyidagi umumiy tadbirlar amalga oshiriladi:

- xavfli texnologik usullarni xavfsiz turiga almashtirish;
- uskuna-moslamalarni tusiklangan holatda joylashtirish;
- korxona binolaridagi qo'llanadigan yonuvchi va portlashga xavfli moddalarning miqdorini kamaytirish;
- uskuna, gaz quvurlarida, havo almashtirish tizimida yonuvchi moddalarning portlashga xavfli koitsentratsiyasi hosil bulishiga yul kuymaslik;
- yonuvchi aralashmalarga ingibitorlar, inert moddalar kushish;

- yong‘in alanganadigan moddalarni saqlashda, ular bilan ishlashda inert muxitini yaratish;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash, uzluksizligini taminlash;
- texnologik uskuna va kommunikatsiyalarning germetikligini ta‘minlash va jarayonda vakuum qo‘llash;
- belgilangan texnologik rejimni aniq bajarish, standartlarga amal qilish;
- texnologik uskunalarni ta‘mirlash, tuzatishdan so‘ng va ishga tushirishdan avval suv bug‘i yoki inert gaz bilan ishlash;
- xavfli joylarda o‘t manbaining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- yong‘in va portlashning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ko‘rik, sinov, rejali-ogohlantiruvchi ta‘mirlash ishlarini o‘z vaqtida olib borish, kasb egalari, mutaxassislarni talabga muvofiq tanlash.

Texnologik jarayon va unga bog‘liq, ishlarning yong‘in xavfiligi avvaldan baholanib, so‘ngra xavfni bartaraf etish uchun muhim, aniq tadbirlar ishlab chiqiladi.

Amaliyotda bino va inshootlarda yong‘inni o‘chirish uchun suv, suv bug‘i, ko‘pik, inert gazlar, kukunlar, siqilgan havo va qattiq moddalar keng qo‘llaniladi. O‘t o‘chirish moddalari elektr o‘tkazish va elektr o‘tkazmaslik xossalariga ega bo‘ladi.

O‘t o‘chirish moddalari zararli, kam zaharli va zaharsiz turlariga bo‘linadi. Shuning uchun korxona ob‘ektlari va maydonlarini yong‘in uchirish moddalari bilan ta‘minlashda va yong‘inni o‘chirishda biror uslubni qabul qilganda ularni hisobga olish kerak.

Xulosa va takliflar

“Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari (Payariq tumani misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishni bajarish mobaynida quydagi xulosalarga kelindi va takliflar ishlab chiqildi:

1. Bozor iqtisodiyotining muhim sohasi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil qilish va uni rivojlanishi biz uchun yangi va murakkab jarayon bo‘lib, doimiy e’tibor qaratishni, yordam va qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik va xorijiy investitsiyalar bo‘yicha Mahkamalararo kengash ishlab turibdi. Ushbu kengash tadbirkorlik sektorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi, kichik va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqadigan asosiy yo‘nalishlari, shakl va usullarini belgilaydi, kichik biznesning umumiy mafkurasini shakllantiradi.

3. Davlat tomonidan berilayotgan yordamdan tashqari, O‘zbekistonda tadbirkorlikning barpo etilishi va rivojlanishi mobaynida tadbirkorlarning nohukumat va notijorat tashkilotlariga birlashish yo‘li bilan o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlash shakllari tobora keng tarqalmoqda. Ushbu tashkilotlar tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, o‘z a‘zolarini turli shakllarda qo‘llab-quvvatlaydi va ularga xizmatlar ko‘rsatadi. Bular qatoriga tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, shaxsiy va dehqon xo‘jaliklari uyushmasi, ishbilarmon ayollar uyushmasi, an’anaviy badiiy hunarmandchilik va ustalar uyushmalari, turistik tashkilotlar uyushmasini kiritish mumkin.

4. Payarik tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga bog‘liq. Shuning uchun ham ushbu savolda Payarik tumanidagi iqtisodiy-ijtimoiy holatni ko‘rib chiqdik.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalarga iqtisodiy va moliyaviy yordam berib, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy manbalar hisobidan 5,6 mlrd. so'm miqdorida kreditlar berilgan.

5. Qishloq xo'jaligi sohasidagi kichik biznes va kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tahlil qilinganda barcha ko'rsatkichlarda o'sish kuzatilgan. Kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi sohasidagi ko'rsatkichlari 2012 yilda 17,8 martaga o'sganligini ko'rish mumkin. Albatta bunday o'sish tufayli kichik korxonalarning bir qator ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatib, korxonani ijobiy natijalarga olib keladi. Ya'ni korxonalarning daromadi, foydasi hamda o'zining mablag'larini va bir qator boshqa ko'rsatkichlarining o'sishini ham ta'minlashi mumkin.

6. Ko'pchilik tadbirkorlarning fikricha hozirgi kunda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan asosiy omillardan biri amaldagi soliq solish tizimi hisoblanadi. Tadbirkorlar soliqlarning zarurligini tushunsalar ham, ular soliq solish jarayonini murakkablashtiradigan ko'pchilik kamchiliklarning mavjudligini belgilaydilar.

7. Bizning fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kafolatlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quydagi yo'nalishlarda olib borilishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasi, jumladan Payarik tumanida tadbirkorlik sub'ektlari huquqlari va manfaatlarini huquqiy jihatdan kafolatlashni takomillashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash fondlarini tashkil etish;
- Davlat boshqaruv organlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini iqtisodiy, huquqiy, statistika, ishlab chiqarish texnologiyaga oid va samarali faoliyat yuritishi uchun kerakli boshqa axborotlar bilan ta'minlash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ishlab chiqarish texnologiya jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- qishloq joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga turli xil imtiyozlar berish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini imtiyozli kreditlashni yanada kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urtalash tizimini yanada takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., "O'zbekiston", 2010 y.
2. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida". 2000 yil 25 may.
3. "Xususiy korxonalar to'g'risida" 2009 yil 11 dekabr.
4. "Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida". 2007 yil 14 dekabr.
5. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir". Prezident Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi". 2010 yil 30 yanvar.
6. I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. // T.,-2010.
7. I.A.Karimovning "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi". 2011 yil 22 yanvar.
8. I.A.Karimovning "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi". 2014 yil 19 yanvar.

Prezident Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, turli dasturlar, yo'riqnoma va boshqa me'yoriy hujjatlar

1. "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Qarori. 2005 yil 15 iyun.

2. “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2005 yil 20 iyun.
3. “Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 2005 yil 21 iyul.
4. “Tabirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori. 2006 yil 24 may.
5. “O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2006 yil 18 aprel.
6. “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2011 yil 15 may.
7. “Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2011 yil 4 aprel.
8. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2011 yil 24 avgust.

1. Kitoblar va turkum nashrlar

1.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to‘plami

- 1.1.1. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Fan”, 2005. – 288 b.
- 1.1.2. Abdullayev Yo.A., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savol va javob. (1-qism) – “Mehnat”, 2000. – 352 b.
- 1.1.3. Abdullayev Yo.A. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. – “Mehnat”, 1997. – 230 b.
- 1.1.4. Isroilov J.I. Tadbirkorlik sub’ektlarida tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilish usullari. (Uslubiy tavsiya). – Samarqand. SVTICHTP, 2004.- 38 bet.
- 1.1.5. Qosimova M.S., Xodiyev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. “O‘qituvchi”, 2009.- 139 b.
- 1.1.6. Mirzayev Q.J., Musayev B. Kichik biznesni boshqarish. Samarqand. 2010. – 137 b.
- 1.1.7. Xodiyev B.Yu. va b. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni

bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2011. – 120 b.

1.1.8. G‘ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002.-365 b.

1.1.9. Qosimova M.S., Xodiyev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. –T: “O‘qituvchi”, 2009. - 239 b.

1.1.10. Sultonov Sh.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. Risola. – T.: “Moliya”, 2011.- 32 b.

1.1.11. Sultonov Sh.A. Istiqlol va tadbirkorlik. Risola. – T.: “Moliya”, 2011.- 24 b.

1.1.12. Sultonov Sh.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: xududiy muammolari va yechimlari. Monogirafiya. – T.: “Navruz”, 2013.

1.2. Ko‘p tomlik kitoblar

1.2.1. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik, I qism – T.: “Fan va texnologiya”. 2007. – 387 b.

1.2.2. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik, II qism – T.: “Fan va texnologiya”. 2010. – 217 b.

1.2.3. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisoiy tahlil. 2-tomlik. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2001.- 1-qism 176 b., 2- qism - 256 b.

1.2.4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.: “Ruskiy yazik”, 1981, 1 tom. -526 b.

Internet va statistika ma’lumotlari

1. <http://www.stat.uz>
2. <http://www.ecsocmen.edu.uz>
3. <http://www.worldbank.org>.
4. <http://www.region.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.Darvoza.uz>.
7. <http://www.Review.uz>.
8. <http://www.Trade sivilization in USA>